

№1(4) 2023



# XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL VA TALQIN

## TAHRIRIYAT

### Bosh muharrir

Murodova Nigora Qulliyevna  
*filologiya fanlari doktori, professor*

### Bosh muharrir o‘rinbosari

Yusubova Rano Norboyevna  
*filologiya fanlari doktori, dotsent*

### Editor – in – chief

Murodova Nigora Kulliyevna  
*doctor of philological sciences, professor*

### Deputy Editor-in-Chief

Yusubova Rano Norboyevna  
*doctor of philological sciences, Associate Professor*

## TAHRIRIYAT A‘ZOLARI

**Sobirov Baxodir Boypulatovich** – NavDPI rektori, texnika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Aynur Öz Özcan** - filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

**Milyugina Yelena Georgievna** - filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

**Tosheva Dilrabo Shokirovna** – falsafa fanlari doktori (Avstraliya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Sayfullayeva Ra‘no** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Iskandarova Sharifa** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Ravshanov Mahmud** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Pardayev Azamat Baxronovich** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Abuzalova Mehriniso Kadirovna** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Ernazarova Manzura Sapparboyevna** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Davlatova Ra‘no Haydarovna** - filologiya fanlari doktori (O‘zbekiston)

**Bahriddinova Bashorat Madiyevna** - filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Agzamova Dildora Baxadirjanovna** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Ibragimova Zamira** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich** - filologiya fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Oripov O‘rolboy** - filologiya fanlari nomzodi

**Qurbanova Xolbibi Qirboyevna** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Sharopova Ra‘no Jaxonovna** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Jumayeva Feruza Ruzikulovna** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Ernazarova Gulnoza Murodovna** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Norova Gulsanam Maxsutovna** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Raxmonov Navro‘z Sattorovich** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Yuldashev Farrux Haqberdiyevich** - filologiya fanlari doktori (O‘zbekiston)

**Nasridinov Ilhom Burxaniddinovich** - texnika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Qurbonov Xurshid Raupovich** - tarix fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Shodiyev Hamza Ro‘ziqulovich** - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Utapov Toyir Usmonovich** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Qayumova Munavvar Sanoqulovna** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Yarashova Nasiba Jumayevna** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Boltayeva Gulchehra Shokirovna** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Tuxtayeva Quysin Davlatovna** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Shamsiyeva Dilorom Mardonovna** - pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston)

**Najmiddinov Fazliddin Nasriddinovich** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Kosheva Dilrabo Xudoyorovna** - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston)

**Musayev Erkin Xalilovich** – katta o‘qituvchi

**Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li** – texnik muharrir

### Tahririyat bilan bog‘lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy

Web-site: <http://lingeji.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

### Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://lingeji.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

## MUNDARIJA / CONTENT

<b>Baxtiyor Mengliyev.....</b>	<b>11</b>
Amaliy Filologiya Istiqbollari	
<b>Mahmud Ravshanov.....</b>	<b>19</b>
O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotida dinamik omil	
<b>Rano Yusubova.....</b>	<b>24</b>
Sintaksisni o‘qitish masalalariga doir	
<b>Nasiba Yarashova.....</b>	<b>31</b>
Bolalarga xos matnlarning psixolingvistik tadqiqi	
<b>Orziboni Yusupova.....</b>	<b>37</b>
Usmon Azim she‘riyatida sintaktik takror	
<b>Iroda Ernazarova.....</b>	<b>42</b>
Eshqobil Shukur she‘rlarining lingvopoetik tahlili	
<b>Omongul Xolibekova.....</b>	<b>47</b>
Psixolingvistika va badiiy matn	
<b>Dilnoza Mamirova.....</b>	<b>51</b>
Reklama matnlarida deytik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari	
<b>Javlon Ibragimov.....</b>	<b>55</b>
Nutqiy so‘z birikmalari va ularning tavsifiga doir	
<b>Gulhayo Jo‘rayeva.....</b>	<b>59</b>
Tog‘ay Murod qissalaridagi ayrim lingvokulturemalarning lingvomadaniy tahlili	

*Navoiy davlat pedagogika institutining  
40 yilligiga bag‘ishlanadi*

**TAMADDUN VA MA’RIFAT O‘CHOG‘I**

O‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli kuch sanalgan ma’naviyat manbaidan oziqlanib, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligining sababi aslida shundandir.

Bugun tiklangan ma’naviy qadriyatlarni milliy o‘zlikni anglashning o‘shidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishidan anglab turibmiz. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi o‘tgan davr ichida mamlakatimizning barcha soxalarida bo‘lganidek, milliy-ma’naviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlari, ta’lim va ma’rifat negizlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zotan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”.

Ko‘hna Sharq zaminida o‘tkir aql, go‘zal axloq, yuksak bilim ma’naviy yetuk inson bo‘lib yetishishning asosiy shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Zero, Navoiy davlat pedagogika instituti ham ilm-ma’rifat o‘choqlaridandir.

Navoiy davlat pedagogika instituti 1983-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti filiali sifatida faoliyat boshlagan. Ustozimiz **Raxmonov Ravshan Raxmonovich** institutimiz asoschisi, uzok yillar rektorlik qilgan yurt fidoyisi bo‘lganligini eslashni joiz deb bildim.

Shahardagi 8-maktabning 1 tagina sinf xonasida asos solingan filial **1992-yilda** mustaqil institut sifatida faoliyatini boshlagan. Bu yil institutimizga asos solinganligiga **40 yil to‘ladi**.

Bugungi kunga qadar institutimizda professor **Xolboy Ibragimovich Ibragimov, Jozil Ostonovich Toxirov, Baxtiyor Xudoyberdievich Daniyarovlar** rektorlik qilishgan. Ularning asosiy maqsadlari ham yosh avlodni barkamol shaxs sifatida kamol toptirish, institut ravnaqini yuksaltirish bo‘lgan.

Bugungi kunda Navoiy davlat pedagogika instituti tasarrufida **8 ta o‘quv binosi, 4 ta talabalar turar joyi, 5 ta ochiq, 4 ta yopiq sport zallari, axborot resurs markazi, o‘quv laboratoriyalari, talabalar oshxonasi** hamda **Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi** faoliyat olib bormoqda.

Eng quvonarlisi shuki, **2023-yilning 7-iyun kuni** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**Navoiy davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” gi qarori e‘lon qilindi. Qarorga

muvofig 2027-yilga qadar **12 000 o‘rinli o‘quv, 2400 o‘rinli talabalar turar joylari, sport inshootlari, amfiteatr, sayilgoh va zamonaviy o‘quv laboratoriyalariga ega “Kampus”** qurilishini boshlash arafasida turibmiz.

Bundan tashqari joriy yilda Davlatimiz rahbari Navoiy viloyatiga tashriflari chog‘ida Navoiy davlat pedagogika instituti negizida **Navoiy Davlat Universiteti** tashkil qilinadi, deb ta’kidladilar.

Bugungi kunda institutimizda **11 ta fakultet, 31 ta ta’lim yo‘nalishi, 18 ta magistratura** mutaxassisligida **20 000 nafardan** ortiq talaba tahsil olmoqda.

Institutda o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy tadqiqot va moliyaviy faoliyatda respublikadagi **216 ta** oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida munosib o‘ringa ega.

Oliy dargohimiz Xorijiy oliy ta’lim muassasalari, ya’ni **AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Kanada, Belarussiya, Latviya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston davlatlari yetakchi oliy ta’lim muassasalari** bilan hamkorlik shartnomalari doirasida ham faoliyat olib borilmoqda.

**2023-yil 1-iyun** holatiga ko‘ra, Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting agentligi tomonidan e‘lon qilingan reytingida O‘zbekiston Respublikasining **47 ta** oliy ta’lim muassasalari qayd etildi. Jumladan, mazkur ro‘yxatda Navoiy davlat pedagogika instituti – 1001+ o‘rinda qayd etilganligini e’tirof etish lozim.

**2023-yil 22-iyun** kuni Xitoyning Gonkong universitetida tashkil etilgan “Osiyo universitetlari reytingi – 2023” natijalari e‘lon qilindi. Mazkur reytingda respublikamizning **32 ta** oliy ta’lim muassasasi qatorida Navoiy davlat pedagogika instituti **“REPARTYoR”** maqomida qayd etildi.

Oliy ta’lim muassasalari milliy reytingida ham institutimiz **15 pog‘onaga** ko‘tarildi.

Agar institutimizda 2017-yilda ilmiy unvonli va ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar **89 (19,7%) nafarni** tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich **205 (38,2%) nafarni** tashkil etdi. 2026-yilga kelib, ilmiy salohiyat **60 foizga** yetkaziladi.

Professor-o‘qituvchilarimiz tomonidan 2017-yilda **2 ta** o‘quv qo‘llanma, **20 ta** monografiya, xorijiy ilmiy jurnallarda **59 ta**, Respublika ilmiy jurnallarida **119 ta** maqolalar chop etilgan bo‘lsa, 2023-yilda **38 ta** darslik, **82 ta** o‘quv qo‘llanma, **36 ta** monografiya, xorijiy ilmiy jurnallarda **419 ta**, Respublika ilmiy jurnallarida **579 ta** ilmiy maqolalar chop etildi.

So‘nggi yillarda institutimizda yosh avlod ta’limi va tarbiyasi borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab talabalarimiz respublika va xalqaro tanlovlarda ishtirok etib fahrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Mana **4 yildan** buyon talaba qizlarimiz **Zulfiya nomidagi davlat mukofotini** qo‘lga kiritib, yana qancha-qancha talabalarimiz yosh avlodga kasb-hunar sirlarini o‘rgatmoqdalar.

**2022-yilning 10-dekabr** kuni o‘tkazilgan Davlat madhiyasiga bag‘ishlangan Respublika OTMlari o‘rtasida **“Shuhrating porlasin toki bor jahon!”** tanlovida Institut talabalari **Respublika g‘olibi** bo‘lishdi.

2022-2023-o‘quv yili davomida institut iqtidorli talabalarining **10 nafari Prezident va davlat stipendiya g‘oliblari** bo‘lishdi.

30-iyun “Yoshlar kuni” munosabati bilan **1 nafar** talabamiz **Gulhayo Ravshanova “Kelajak bunyodkori”** Davlat mukofoti, **1 nafar** talabamiz **Olimjon Normurodov “Mard o‘g‘lon”** Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

Bundan tashqari **Nargiza Shonazarova** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **“Innovatsion g’oyalar tashabbuskori”** ko’krak nishoni soxibasi bo’ldi.

Institut “Notiqlik” klubi talabalari **“Munozara”** bellashuvining respublika bosqichida ishtirok etib **110 ta** Oliy ta’lim muassasalari o’rtasida talabalarimiz **Lobar Jalolova, Feruza Saidmurodova, Akram Tojiyevlar** faxrli birinchi o’rinni egalladilar.

Binobarin, jamiyatda bilimga asoslangan o’zaro ahillik va hamjihatlik kayfiyati Uchinchi Renessans eshiklarini ochib beradi. Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, **“Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!”**. Shunday ekan, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizga zamonaviy bilimlarni berish, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash Biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Insoniyat yaralibdiki, o’z tarixiy taraqqiyoti jarayonida qanday yutuqlarga erishmasin, albatta, unga faqat ilm olish, ma’rifatli bo’lish bilan erisha olgan. Chunonchi, yaxshi ekilgan urug’, albatta, o’zining mo’l hosilini bergani kabi Alisher Navoiyning munosib vorislari bugungi Navoiy davlat pedagogika institutining munosib vakillaridir. Zero, Navoiy davlat pedagogika institutining ilm-ma’rifat ahllari mustaqil O’zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo’lishi uchun komil, har tomonlama barkamol, ma’naviy va axloqiy pok, vatanparvar, mehnatsevar insonlarni kamol toptirib, jaholatga ma’rifat bilan qarshi kurashib, milliy qadriyatlarimizni tiklash, ma’naviy merosimizni, boy tariximizni asrash kabi g’oyat muhim va dolzarb masalalarni har bir yosh avlod qalbiga jo aylab, Navoiyning munosib izdoshlari ekanligini dunyoga taratayotirlar. Shunday ekan, Navoiy davlat pedagogika institutining 40 yillik muborak yoshini keng nishonlash hamda dunyo jamoatchiligi miqyosida tan olinishi yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni qo’llab-quvvatlab, barchani shunga da’vat etib qolamiz.

***Bahodir Boypulatovich Sobirov**  
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori,  
texnika fanlari doktori, professor*

## SAODATLI TAQDIR SOHIBI

**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, falsafa fanlari doktori, professor Ravshan Rahmonovning hayoti va faoliyati**



Navoiy davlat pedagogika institutining birinchi rektori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, falsafa fanlari doktori, professor Ravshan Rahmonov 1943-yil 15-mayda Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. 1949-yilda Qorako‘l tumani markazidagi A.S.Pushkin nomidagi maktabning 1-sinfiga o‘qishga bordi. 1960-yilda maktabni a‘lo baholarda tamomlagandan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kirdi. Talabalik yillarida a‘lo baholarda o‘qishi bilan birga universitetning yoshlar qo‘mitasi sarkotibi vazifasida ham ishladi. O‘qishi davomida universitetning professor-o‘qituvchi va talabalari o‘rtasida o‘zining bilimi, tirishqoqligi, tashkilotchiligi bilan ajralib turgan, sportning kurash turi bilan muntazam shug‘ullangan. 1965-yilda mazkur universitetni imtiyozli diplom bilan bitirib, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining kunduzgi bo‘lim aspiranturasiga o‘qishga qabul qilindi. Aspiranturada O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor E.Yusupov ilmiy rahbarligida “Milliy progressiv an‘analarning baynalminal tarbiyadagi o‘rni va roli” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ustida tadqiqot olib bordi va 1968-yil 12-iyunda uni muvafaqqiyatli himoya qildi.

Ravshan Rahmonov 1969-yildan boshlab Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi BuxDU)ning Falsafa kafedrasida o‘zining ilmiy pedagogik faoliyatini davom ettirdi. 1975-yilda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan unga dotsent ilmiy unvoni berilgan. Tabiatan o‘ziga talabchan R.Rahmonov ilmiy tadqiqot ishini davom ettirish maqsadida 1980-yilda Moskvadagi sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Falsafa institutining kunduzgi bo‘lim doktoranturasida o‘qishga kiradi va falsafa fanlari doktori, akademik E.Yusupov hamda falsafa fanlari doktori, professor F.Konstantinovlar ilmiy rahbarliklarida “Shaxs ongida baynalminal e‘tiqodni shakllantirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini 1982-yil 18-oktyabrda, muddatdan avval, himoya qiladi. Ravshan Rahmonov 39 yoshida falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini oldi va o‘sha davr uchun Ittifoqda bu yoshda falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish kamdan kam uchraydigan voqea edi. Ko‘p o‘tmay, ya’ni 1984-yilda, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan unga professor ilmiy unvoni ham beriladi.

Bugungi kunda nafaqat Navoiy viloyati, balki respublikamiz oliy ta'lim tizimida o'z nufuzi va o'rniga ega bo'lgan Navoiy davlat pedagogika institutining tashkil etilishi va rivojlantirilishi jarayonida ham Ravshan Rahmonovning o'z o'rnini va hissasi bor. Ushbu oliy o'quv yurti Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Navoiy filiali sifatida O'zSSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston kompartiyasi markaziy komitetining 1983-yil 27-iyuldagi 455-sonli Qarori bilan tashkil etilgan. Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Navoiy filiali tashkil etilishi 1982-yilda yangi tashkil etilgan Navoiy viloyati ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, bungacha Navoiy viloyatida istiqomat qilayotgan yoshlar pedagogika sohasida oliy ma'lumot olish uchun qo'shni Samarqand va Buxoro viloyatlari yoki poytaxt Toshkent shahridagi oliy o'quv yurtlariga borib tahsil olishgan.

1983-yilda tashkil etilgan Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti Navoiy filialining direktori etib Ravshan Rahmonov tayinlangan. Ravshan Rahmonov direktorlik faoliyatini Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Navoiy filialida 6 nafar professor-o'qituvchi bilan Navoiy shahridagi 8-umumta'lim maktabining uchta o'quv xonasida boshlagan. 1983-yilda filialning boshlang'ich ta'lim metodikasi, milliy maktablarda rus tili va mehnat ta'limi yo'nalishlarida 180 nafar talaba sirtqi bo'limga va 100 nafar talaba kechki bo'limga o'qishga qabul qilingan. 1984-yildan boshlab o'qishning kunduzgi shakli ham ochilgan.

Institut filialini to'la qonli oliy o'quv yurti darajasiga yetkazishda Ravshan Raxmonovning hissasi katta bo'ldi. Chunki, o'sha davrda Navoiy viloyatida oliy ta'lim tizimida dars beradigan salohiyatli ilmiy-pedagogik kadrlar taqchil edi. Shuning uchun Ravshan Rahmonov ishga, yosh kadrlar bilan birga, Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi oliy o'quv yurtlarining yetakchi pedagog-olimlarini ham jalb qildi. Buning natijasida bir necha yil davomida Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti Navoiy filialining yuqori malakali professor-o'qituvchilar jamoasi shakllantirildi. Bundan tashqari Ravshan Rahmonov ta'lim muassasidagi rahbarligi davomida filialning moddiy-texnik bazasini mustaqamlash maqsadida respublika va viloyat rahbariyatiga murojaatlar bilan chiqdi. Natijada 1984-1985 o'quv yilida Navoiy shahrida Ishchilar ta'minoti boshqarmasi uchun qurilgan bino o'quv korpusi sifatida ta'lim muassasiga berildi. Shu yilning o'zida yana ikkita bino talabalar turar joyi sifatida qurildi. Keyingi o'quv yillarida esa Navoiy shahridagi Janubiy ko'chasida joylashgan sobiq bilim yurtining o'quv binosi filialga berildi.

Navoiy davlat pedagogika institutining mustaqil oliy ta'lim muassasi sifatida tashkil etilishida, shubhasiz, Ravshan Rahmonovning ham hissasi katta. U kishi, o'sha davrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining deputatligi vakolatidan foydalangan holda, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qabulida bo'lib, Navoiy viloyatida mustaqil pedagogika oliy ta'lim muassasasi tashkil etishning ahamiyatini asoslab berdi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi PF-356-sonli Farmoni bilan Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil oliy ta'lim muassasasi sifatida tashkil etildi. Ushbu oliy yurtini 1992-yildan 2004-yillarda

rektor sifatida Ravshan Rahmonov boshqardi. Ravshan Rahmonov Navoiy davlat pedagogika institutining to'laqonli oliy o'quv yurti bo'lib shakllanishida o'z kuchi, bilimi va mehnatini ayamadi.

Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil oliy ta'lim muassasasi sifatida tashkil etilganda uning tarkibida uchta fakultet, to'qqizta kafedra va to'qqizta ta'lim yo'nalishi mavjud edi. Professor-o'qituvchilar soni 100 nafar atrofida, talabalar kontingenti esa 4000 nafardan oshmas edi. O'quv binolari soni 2 ta va talabalar turar joyi 2 ta edi. Ravshan Rahmonovning sa'y-harakatlari natijasida 2004-yilga kelib institutda yettita fakultet, o'n to'qqizta kafedra va o'n sakkizta ta'lim yo'nalishi faoliyat ko'rsatdi. Professor-o'qituvchilar soni 350 nafar atrofida bo'lib talabalar kontingenti 10000 nafardan oshdi.

Ravshan Rahmonov mohir tashkilotchi bo'lishi bilan birga salohiyatli olim ham edi. Uning 300 ga yaqin ilmiy ishlari (monografiya, risola, ilmiy maqolalar hamda konferensiya tezislari) chop etilgan. Shu bilan birga, u Respublikamiz gazeta va jurnallarida o'zining turli mavzudagi publitsistik maqolalari bilan chiqishlar qilib turdi. Ravshan Rahmonov ilm-fan jonkuyari, yosh olimlarning ustози, beminnat maslahatchisi ham edi. Bevosita uning ilmiy rahbarligida 1 ta doktorlik va 5 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi, yosh iqtidorli o'qituvchi-pedagoglar ilmiy tadqiqot ishlariga keng miqyosda jalb etildi. Buning natijasida rektorlik faoliyati davomida institutda 70 dan ortiq turli yo'nalishlardagi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi.

Ravshan Rahmonov rahbarligi yillarida Navoiy davlat pedagogika institutida bir necha ming malakali pedagog-o'qituvchilar tayyorlandi. Ular hozirda Navoiy viloyati va respublikamizning boshqa viloyatlarida xalq ta'limi sohasida murabbiy-o'qituvchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Fidoiy va tashabbuskor Ravshan Rahmonov rektorlik faoliyati davomida Navoiy viloyati miqyosida keng ko'lamdagi jamoatchilik ishlarining bevosita tashkilotchisi, targ'ibotchisi va ishtirokchisi bo'ldi. Jumladan, Navoiy viloyati televedeniyasida aholini vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan "Vatan" ruknidagi ko'rsatuvlarini muallif sifatida bir necha yillar davomida olib bordi.

Ravshan Rahmonov Navoiy viloyat va shahar Xalq deputatlari Kengashlari deputatligiga bir necha bor saylangan. 1989-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati etib saylandi. U O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov raisligidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish komissiyasi a'zosi, Oliy Kengash kotibiyati a'zosi sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, O'zbekiston manfaatlarini himoya qilish maqsadida respublika Oliy Kengashi tomonidan yuborilgan 20 nafar xalq deputatlari tarkibida sobiq SSSR Oliy Soveti sessiyalarida faol ishtirok etdi. Deputatlik faoliyati davomida Navoiy viloyati va respublika miqyosida xalq ta'limi, sog'liqni saqlash va ekologiya yo'nalishlaridagi muammolarni ko'tarib chiqdi. Xususan, sobiq Ittifoq davrida Navoiy viloyati ekologik ahvoli masalasini Respublika ommaviy axborot vositalari orqali olib chiqqan.

Bugungi kunda R.Rahmonovning farzandlari ham otalarining izidan borib fan va ta'lim sohasida munosib faoliyat olib bormoqdalar. Jumladan, ustozning qizlari Mahbuba Rahmonova – filologiya fanlari doktori va Nilufar Raxmonova esa iqtisod fanlari doktori ilmiy darajalariga ega.

Ravshan Rahmonovning ilmiy-pedagogik va jamoatchilik faoliyati hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” (1992), “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni sohibi (2008), bir necha bor Xalq ta’limi va Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirliklarining faxriy yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlangan. Navoiy shahridagi ta’lim, fan va madaniyat sohalaridagi xizmatlari uchun “Navoiy shahrining faxriy fuqarosi” (2008) berilgan.

Ravshan Rahmonovning hayoti va faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Markaziy teleradiokompaniyasi tomonidan maxsus ko‘rsatuv tayyorlanib efirga uzatilgan. Bundan tashqari, 2003-yilda “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” nashriyotida chop etilgan “Nigohlarda bitilgan siyrat” va 2004-yilda professorlar O.Safarov va M.Mahmudovlar hammuallifligida yozilgan va “Sharq” nashriyotida chop etilgan “Saodatli taqdir sohibi” nomli kitoblar Ravshan Rahmonovning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan.

## AMALIY FILOLOGIYA ISTIQBOLLARI

**BAXTIYOR MENGLIYEV,**  
*filologiya fanlari doktori, professor*

**Annotatsiya.** Nazariy tilshunoslikda o‘zga tillar asosidagi talqinlardan chekinib, o‘z tilining tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida millat ruhining ichki imkoniyatlarini ochishga qaratilgan o‘zbek amaliy tilshunosligi shakllandi, rivojlandi, ta’lim tizimiga joriy etilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** filologiya va til o‘qitish sohasi, nutqiy vaziyat, sharoit, madaniy muhit, estetik qiymat.

**Аннотация.** В теоретическом языкознании сформировалось, развивалось, внедряется в систему образования узбекское практическое языкознание, направленное на раскрытие внутреннего потенциала духа нации как одного из основных факторов формирования и развития мышления собственного языка, отступающего от иноязычных интерпретаций.

**Ключевые слова:** филология и языковая сфера обучения, речевая ситуация, условия, культурная среда, эстетическая ценность.

**Annotation.** In theoretical linguistics, Uzbek practical linguistics has been formed, developed, and is being introduced into the education system, aimed at revealing the inner potential of the spirit of the nation as one of the main factors in the formation and development of thinking of one's own language, departing from foreign-language interpretations.

**Key words:** philology and language field of study, speech situation, conditions, cultural environment, aesthetic value.

**Kirish.** Milliy o‘zlikni anglashdagi qutlug‘ qadamlarimizdan biri bo‘lgan va qabul qilinganining 34 yilligi nishonlanayotgan “Davlat tili to‘g‘risidagi”gi Qonunning o‘tgan davrda bergan ulkan natijalari va samarasi beqiyos. Bu davrda o‘zbek tili o‘z tarixida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Qonunning tarixiy ahamiyati shundaki, u o‘choqboshi va ko‘cha-ko‘y tili darajasiga tushib borayotgan ona tilimizning barcha jabhalarda keng amalda bo‘lish, ilmiy, rasmiy, badiiy, ijtimoiy, sohaviy uslubiyati va terminologiyasini rivojlantirish, davr bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini keskin oshirdi, tilimizga mutlaqo yangi ruh bag‘ishladi; ichki imkoniyatlarining to‘la voqelanishi va uzluksiz taraqqiyoti uchun ijtimoiy shart-sharoit yaratdi. Hozirgi kunda o‘zbek tili fan va madaniyatning barcha – qonunchilikdan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nutqigacha bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirish darajasiga intilmoqda. Qonun sharofati bilan o‘zbek tili tashqi funksional imkoniyatlari doirasining

kengayishi respublikamizda ona tili ta'limi mazmuni, maqsadi va usulini tubdan yangilash zaruratini tug'dirdi. Pirovardida “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning hayotga tatbiqi samarasi o'laroq qabul qilingan DTSlarida ona tilini umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'limda o'qitish mana shu yo'nalishda tubdan isloh qilindi va bu davom etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir pallasida har bir fan bo'yicha ta'limning qaysi bosqichida nimani, nima maqsadda va qay yo'sinda o'qitish masalasi umummilliy muammo darajasiga ko'tariladi. Natijada muammo yechimiga jamoatchilik diqqat-e'tibori qaratiladi, tegishli soha ilmiy salohiyati bu muammo yechimiga yo'naltiriladi. Ta'lim maqsadi belgilanib, ta'lim mazmuni tayyorlanadi, shunga muvofiq ta'lim usuli ishlab chiqiladi.

O'tgan asrning 90-yillariga kelib mavjud ona tili ta'limining yaroqsiz holga kelib qolganligi, uni tubdan isloh qilish lozimligi, ta'lim maqsadi, mazmuni va usulini yangilash zarurati ayon bo'lib qolgan edi. Chunki O'zbekiston taraqqiyotning ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladi. Mulkchilik munosabatlari qaror topib, jamiyat a'zolari ongida boqimandalik kayfiyati, fikriy tanballik hissi o'rnini iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, yo'qdan bor qilish, ichki imkoniyatlarni ishga solish istagi egallashi, aql-idrokka qudratli yaratuvchi kuch sifatida qarash, chetdan madad kutmaslik tuyg'usi shakllanishi zarur edi. Yangi davr bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo'llarini puxta o'zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko'nikmasiga ega bo'lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezdi. Natijada, mamlakatimiz istiqlolining ilk yillaridayoq ta'limning umumiy maqsadi negiziga mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash mo'ljali qo'yildi. Ta'limning umumiy maqsadi esa har bir fan o'z maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadiki, bu, xususan, umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida berilgan ona tili ta'limi maqsadida o'zining yaqqol ifodasini topdi. Ta'lim o'quvchining ongli va faol ravishda o'z malaka va ko'nikmalarini shakllantirishiga, ta'lim usuli, mazmuni hamda ta'lim vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo'naltirildi. Biroq yangi davr talablari asosida ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarga ustuvorlik berilishiga qaramasdan, til qurilishi haqida ko'p hollarda amaliy tatbiqdan yiroq, kam samarali lingvistik bilimlar berishdan iborat eski va chayir an'ana hanuz saqlanib qolmoqda. Mubolag'asiz ravishda aytish mumkinki, bugungi kunda boshlang'ich sinflarda deysizmi, tayanch sinflar yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejarida deysizmi, til qurilishi bo'yicha beriladigan bilimlar hissasi ona tilidan amaliy foydalanish kompetensiyasidan ancha ustunlik qiladi. Ahvol shu darajaga yetdiki, chuqurroq e'tibor berilsa, ona tili ta'limi maqsadi ijodiy tafakkur sohibi va til imkoniyatini egallagan shaxsni tarbiyalash emas, balki tilshunos olimni yetishtirishga o'xshab qoldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, tasniflash, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta'limining ham zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta'limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo'ydi.

Natijada, dunyo fanida tilning ichki qurilishini tavsiflaydigan quruq nazariyabozlikdan til va shaxs mushtarakligi masalasi bilan shug'ullanadigan amaliy yo'nalishlariga o'tish to'liqini kuch olmoqda. Til ta'limi ham amaliy xarakter kasb etib, umuman olganda, filologiya va til o'qitish sohasida ta'lim oluvchilarning muayyan nutqiy vaziyat, sharoit va madaniy muhitda tildan oqilona, samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish va uning filologik ta'minotini vujudga keltirish masalasi bilan shug'ullanishi yechimini mutlaqo kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi.

Filologiya fan sohasi sifatida til va adabiyot bilan bog'liq nazariy, ta'limiy va amaliy masalalar bilan shug'ullanadi. Dunyo miqyosida filologiya sohasining bir necha turi mavjud bo'lib, har bir filologik faoliyat turi ijtimoiy hayotdagi tegishli muammolar bilan bog'liq o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega.

Nazariy filologik faoliyat tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha fundamental bilimlarni egallash asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud nazariy filologik konsepsiyalar va alohida lisoniy, adabiy hodisa va jarayonlar, turli shakldagi matnlarni turli nazariy hukm va xulosalar chiqarish uchun tahlil va talqin qilish, umumlashtirish, tegishli ilmiy ma'lumotlarni to'plash, olib borayotgan tadqiqot bo'yicha annotatsiya, referat tayyorlash, bibliografiya tuzish, mavzu va soha bo'yicha ilmiy munozara, himoya va muhokamalarda ishtirok etish, axborot va ma'ruzalar bilan chiqish qilish, ilmiy xulosalarni og'zaki, yozma va virtual tartibda (axborot tarmoqlariga) taqdim etish kabilarni o'z ichiga olib, bu vazifalar vatanimiz filologiya sohasining bosh nazariy yo'nalishi doirasida birlashadi hamda asosan, amaliy tatbiq bosqichigacha bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Ta'limiy filologik faoliyatda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga tayanib, oliy, umumta'lim va kasbiy ta'lim muassasalarida til va adabiyot bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni bajarish, tegishli metodika asosida ona tili va adabiyot bo'yicha mashg'ulotlar va sinfdan tashqari ishlar uchun o'quv-metodik materiallar tayyorlash, filologik bilimlarni va o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ommalashtirish va tarqatish bilan shug'ullaniladi.

Mamlakatimizdagi bu ikki filologik faoliyat turi natijalarini bimalol rivojlangan davlatlar ilmi va ta'limi samaradorligi darajasida deyish mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda filologik faoliyatning uchinchi bir sohasi – amaliy filologik faoliyat turi ham shakllanib ulgurdi va jadal rivojlanmoqda. Amaliy filologik faoliyat turi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda, ko'plab amaliy lingvistik tadqiqotlar bajarilmoqda. Nazarimizda, respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi yuksalish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanayotganligi bizda ham amaliy filologik ta'lim va faoliyatni, bu borada istiqbolli va maqsadli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishini rasman yo'lga qo'yish hamda har tomonlama rivojlantirish o'ta dolzarb vazifalardan.

Amaliy filologik ta'limni yo'lga qo'yish, amaliy filologik faoliyat olib borish va bunga doir tegishli tadqiqot ishlarini amalga oshirish ehtiyoji ijtimoiy hayotimizda ancha ilgari vujudga kelgan edi. Bunga doir ayrim dalillarni keltiramiz.

**1-voqea.** Ko'p yillar ilgari inson huquqlari bo'yicha Ombudsman idorasidan men o'sha vaqtlarda mudirlik qilayotgan kafedraga bir shikoyatda ko'rsatilgan masalaga tilshunos ekspert sifatida munosabat bildirishi so'ralgan murojaat xati kelib tushdi. Unda

shikoyatchi yangi pasport olganligi, pasportning tegishli bo‘limida uning millati “boshqird” deb yozilganligi, lekin u bashkir millatiga mansub ekanligini aytib, *bashkir* so‘zining o‘zbek tilida *boshqird* deb yozilishiga izoh berishni so‘ragan edi. Bir qarashda rus tilidagi *bashkir* so‘zining o‘zbek tilida *boshqird* shaklida berilishini izohlash jo‘ngina tuyulsa-da, shugina muammo yechimi uchun ham ancha ter to‘kishga to‘g‘ri kelgan edi. Bunda quyidagilarga e‘tibor berilishi lozim edi:

*birinchidan*, manbalardan so‘zning genezisi, etimologiyasi, boshqa tillarga o‘zlashishi, o‘zlashtirgan tilning talaffuz va imlo imkoniyat hamda xususiyatlarini o‘rganish, asoslash va muayyan xulosalarga kelish;

*ikkinchidan*, xulosalarni ilmiy yo‘sinda emas, balki rasmiy-idoraviy uslubda qisqa, aniq va tushunarli, mantiqli bayon qilish;

*uchinchidan*, xulosa berish uchun lingvistik ekspertiza bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish.

Masalaning uchinchi jihati men uchun qiyin bo‘lib, lingvistik ekspertiza bo‘yicha ma‘lumotga ega emas edim. Natijada maxsus izlanishga to‘g‘ri keldi va dunyo miqyosida lingvistik ekspertiza tilshunoslikning muhim hayotiy tarmog‘i bo‘lgan yurilingvistikaning o‘zagi sifatida katta yutuqlarni qo‘lga kiritganini va amaliyotda sud-expertiza sohasining muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurganini, bu borada ulkan amaliy tadqiqotlar bajarilganligi va ta‘limda tegishli yo‘nalish va mutaxassisliklar uchun ko‘plab o‘quv adabiyotlari yaratilganligini ko‘rib, bu sohani mamlakatimizda ham yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish zarurligi haqidagi fikrga kelgan edim.

**2-voqea.** Ikki kishi janjallashib qolishgan, ulardan biri ikkinchisini “eshshak” deb haqorat qilgan bo‘lib, ish sudgacha borgan, tomonlardan biri hadeb o‘zining hayvonga tenglashtirilganligida turib olgan edi. Shunda sud “eshshak” so‘zining ma‘nosiga lingvistik sharh berishni so‘rab filologga murojaat qilindi. Sudda mutaxassisning *eshshak* so‘zi hayvonni emas, balki (eshsifat) odamni ifodalashi, hayvonga nisbatan esa bir “sh” tovushiga ega *eshak* so‘zi qo‘llanilishini tegishli imlo va izohli lug‘atlar, boshqa ilmiy manbalarni asos qilib ko‘rsatgan holda bergan xulosasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan edi. Lekin mutaxassisning lingvistik ekspertiza bilan shug‘ullanish huquqi yo‘qligi masalani chigallashtirgan edi. Zero, uning mutaxassisligi malaka talablarida qayd etilmagan edi.

**3-voqea.** Hamkasblarimizdan biri o‘zi guvoh bo‘lgan quyidagi voqeani aytib bergan edi. Olim ishlaydigan O‘zbek tilshunosligi kafedrasiga bir kishi kelib, o‘zini tergovchi deb tanishtiradi va bir masalada yordam berishlarini so‘raydi. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘z joniga qasd qilgan bir kishi xat qoldirgan bo‘lib, unda hayotdan o‘z xohishi bilan ketayotgani, bunda hech kimni ayblamasligi aytilgan. Tergovchiga shu xat borasida lingvistik xulosa zarur ekan. Xatni marhum o‘z qo‘li bilan yozgani aniq, biroq u o‘z hohishi bilan yozganmi, birov majburlaganmi, yozish jarayonida uning ruhiy holati qanday bo‘lgan – ana shularni oydinlashtirmoqchi ekan. Shunda hamkasbim bunday savollarga javob berish imkoni yo‘qligi, u bilan tilshunoslik shug‘ullanmasligini aytadi. Tergovchi esa o‘zining Moskvada tahsil olganini va amaliyot chog‘ida shunga o‘xshash muammolar bilan mutaxassislar Moskva davlat universitetining filologiya fakultetiga tez-tez murojaat qilishlariga guvoh bo‘lganini, fakultet talabalariga “Sud lingvistikasi” fani

maxsus o‘qitilishi, bunday kadrlarga ehtiyoj kattaligi va maoshlari ham yuqori ekanini aytadi.

**4-voqea.** Bir vaqtlar G‘arb mamlakatlarida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishishga to‘g‘ri kelganda, “Tovar yorliqlarida harf shakllarining inson psixikasiga ta’siri”, “Tashqi reklamalarda vizual urg‘u”, “Falon temperamentli shaxsning nutqi” kabi mavzularda doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinganligi, ular tegishli korxonalar tomonidan ancha yaxshi moliyalanganligini bilib, bizda ham shunday ishlarni bajarish vaqti kelganligi haqidagi fikrga kelgan edim. Magistrarga shu yo‘nalishdagi mavzularni rejalashtirganimda, ular kengash tomonidan tomonidan “tor”, “nazariy jihati yo‘q”, “jiddiy mavzular emas” degan ayblar bilan inkor qilingan edi. Lekin ko‘p o‘tmay inkor etuvchilar tarafida turgan bir hamkasbimizning matbuotdagi jamoat transportlaridagi “LITSENZIYASIZ yo‘lovchilarni tashish taqiqlanadi” lavhasidagi *litsenziya* so‘zi butunicha bosh harflarda berilganda “litsenziyasiz yo‘lovchi” ma‘nosini anglatmasligi haqidagi chiqishi amaliy tadqiqotning yorqin namunasi edi.

Kundalik hayotda tilning amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liq ko‘plab ishlarni bajarishimizga to‘g‘ri kelgan. Turli hujjatlarni tayyorlash, matnlar tahriri, lug‘at va qomuslar tuzish yoki ularga munosabat bildirish va h. Bu ishlarning birortasi bo‘yicha maxsus ma‘lumotimiz yo‘q va ularni bajarishda hayotiy tajribamiz asosida ish ko‘rib kelamiz. Masalan, matn tahriri bo‘yicha maxsus dasturlashgan ma‘lumotga ega bo‘lmagan an‘anaviy filologlar tahrir ishlarini amalga oshiradilar, lekin ehtiyojmand kishiga bu bo‘yicha tizimli va umumiy mohiyatli maslahat berishda qiynalishadi. Tayyorlanayotgan filologlarimiz lug‘at va qomuslar tuzish yoki ularning elektron ko‘rinishlarini tayyorlash bo‘yicha hech qanday amaliy ma‘lumotlarga ega bo‘lmagani holda (tayyorlanayotgan mavjud yo‘nalish va mutaxassisliklardan buni talab qilish ham to‘g‘ri emas) bugungi kunda kitob rastalarini son-sonog‘i yo‘q sifatsiz lug‘at va qomuslar, so‘zliklar bosib ketayotganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Hozir bizda istagan kishi lug‘at tuzishi va bundan istihola qilmasligi mumkin, bu lug‘atchilik amaliy filologiyaning peshqadam sohasi sifatida rasman mutlaqo yo‘lga qo‘yilmaganligi, oliy filologik ta‘lim tarkibida lug‘atchilik ta‘limi yo‘qligi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy hayotimizda amaliy filologik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kadrlarga kuchli ehtiyoj mavjudligi yuqorida umumiy tarzda aytili. Deylik, til dalillarini ilg‘or metodlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yig‘ish va ishlov berish, (qayta ishlash, saqlash, tuzatish, tahlil qilish, sharhlash va umumlashtirish), samarali metodika va me‘yorlar asosida turli xildagi matnlarni yaratish (og‘zaki chiqish, umumiy ma‘lumot, annotatsiya, referat, muxtasar bayon, hisobot, rasmiy ish, publitsistik, reklama matnlarini tayyorlash), korxonalar tashkilot va muassasalarda rasmiy idora hujjatlari bilan ishlash, turli shakl va tipdagi matnlarni qayta ishlash va ularga ishlov berish (tekshirish, tuzatish (korrektirovka, tahrir), tushuntirish, bayon qilish, sistemalashtirish, umumlashtirish, referat tuzish), sharhlar tayyorlash, ensiklopediya va lug‘atlar tuzish, lisoniy va adabiy ma‘lumotnomalarni yaratish, davriy nashrlarni tayyorlash, adabiy-tanqidiy jarayonga doir arxiv materiallarini tavsiflash va ularga ishlov berishda qatnashish, turli tipdagi (asosan ilmiy va publitsistik) matn va hujjatlarni chet tillardan va chet tillarga tarjima qilish, hujjatlar, ilmiy va badiiy materiallarning chet tillardagi referat va annotatsiyalarini tuzish, ommaviy va shaxslararo ag‘zaki, yozma va

virtual muloqotni, shu jumladan, madaniyatlararo, millatlararo va xalqaro lingvomadaniy aloqalarni amalga oshirish sifatiga bo‘layotgan ijtimoiy ehtiyoj maxsus amaliy filologik kompetensiyaga ega kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi. Amaliy filologik kompetensiya tarkibiga kiruvchi bu vazifalarni maqsadi va yo‘nalishi boshqa bo‘lgan nazariy yoki ta‘limiy filologik faoliyatga yo‘naltirilgan kadrlardan talab qilish ixtisoslashuv kuchaygan bugungi zamonda to‘g‘ri emas.

Amaliy filologik faoliyat turi tizimli amaliy filologiya bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadli ta‘limini yo‘lga qo‘yish asosida shakllantiriladi. Bunda ham ta‘limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyili yetakchilik qiladi – har bir ta‘lim bosqichi oldiga qo‘yilgan talablar asosida ta‘lim maqsadi, mazmuni va usullari tizimi shakllantiriladi.

Amaliy filologiya bakalavridan, filologiyaning barcha turi uchun mushtarak bo‘lgan umumfilologik kompetensiya bilan birga, xususiy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. Ularda amaldagi me‘yor va metodlar asosida turli xil va turdagi matnlarni yaratish mahorati shakllanadi. Shuningdek, turli tipdagi matnlarni qayta ishlash, ularga ishlov berish, masalan, tuzatish, tahlil va tahrir qilish, sharhlash, annotatsiyalash, referatlashtirish, tavsiflash kabi amallar professional kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, millatlararo integratsiya jarayoni kuchayayotgan bir sharoitda turli tipdagi, ya‘ni rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik matn hamda hujjatlarni boshqa tillardan ona tiliga, ona tilidan boshqa tillarga sifatli tarjima qilish professional o‘quv va malakani talab qiladi. Matnlarning mukammal lingvistik ekspertizasi esa sud-ekspertiza ishi sifati oshishiga ko‘maklashadi. Amaliy filologiya bakalavrining, shu bilan birga, ta‘limiy, ilmiy madaniy-oqartuv tashkilotlari, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-tashkiliy idoralar, bosmaxonalar, jamoaviy va aloqa sohalariga doir turli tipdagi loyihalarni ishlab chiqish va joriy qilish kabi amaliyotlarda namoyon bo‘ladigan professional bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi davr talabidir.

Amaliy filologiya bakalavrida professional kompetensiyani shakllantirish uchun ixtisoslik fanlari tarkibida, umumfilologik fanlar bilan birgalikda, sof amaliy maqsad va mazmundagi “Matn tahriri”, “Kommunikatsiya asoslari”, “Rasmiy hujjatlar tilining amaliy masalalari”, “Lingvistik ekspertiza”, “Kalligrafiyashunoslik asoslari”, “Matn ustida ishlashning filologik asoslari”, “Kasbiy faoliyatning axborot texnologiyalari”, “Kasbiy kommunikatsiyaning filologik ta‘minoti”, “Amaliy leksikografiya”, “Til korpusi” kabi o‘quv kurslarining joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bunda, shuningdek, “Informatika” kursi, an‘anadigan farqli ravishda, axborot olish va uzatishning innovatsion texnologiyalari mazmunida bo‘lmog‘i lozim. Nutq hosil qilish nazariyasi sifatidagi “Psixolingvistika” kursi amaliy xarakter kasb etishi va “Nutq psixologiyasi” shakli va mazmunida bo‘lishi zarur.

Amaliy filologiya yo‘nalishi bitiruvchilarning bozor talablariga moslashuvini inobatga olib, ularda qo‘shimcha nazariy va ta‘limiy filologik kompetensiyalarni shakllantirish ham ko‘zda tutiladi.

Amaliy filologiya mutaxassisligi soha bo‘yicha malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlaydi va bo‘lajak tadqiqotchilarda ilmiy izlanish kompetensiyasiga urg‘u beriladi. Shu boisdan, ularning ixtisoslik bo‘yicha professional kompetensiyasi amaliy filologiyaga doir yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyot yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini

tahlil qilish, sohadagi fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot ishlarini olib borish, shu xil tadqiqot ishlari metodologiyasini aniqlash, tanlash, egallash va ishlab chiqarib olish, amaliy filologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yechish uchun “ishlaydigan” ilmiy xulosa va tavsiyalar berish, axborot texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanish, sohaga oid davr talablaridan kelib chiqayotgan muammolarning nazariy va amaliy yechimlarini belgilash, bajarayotgan tadqiqotlari mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqarib bilim, ko‘nikma va malakalar markaziy o‘rinni egallaydi. Amaliy muammolarning nazariy asoslarini o‘rganish, ularning muayyan sohalaridagi aniq yechimini yaratish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari, vazirlik va idoralar, ilmiy va maslahat markazlarida faoliyat olib borish, ilmiy seminar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalarda ishtirok etish, tegishli muammolar doirasida ilmiy manbalarni yaratish kabilarda namoyon bo‘ladi. Amaliy filologiya magistri ixtisoslik kompetensiyasi esa amaliy filologiya masalalari yuzasidan, birlamchi manbalarga suyangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hali ishlanmagan mavzularni aniqlay olish malakasiga ega bo‘lish, ilmiy-tadqiqotlarni bajarish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo‘lish, zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasini, turli tadqiqot metodlari va metodologiyalarining qiyosiy tavsifini, hozirgi zamon amaliy filologiyasiga doir nazariy qarashlarni o‘zlashtirish, yetakchi konsepsiyalar, ilg‘or nazariyotchilarning asarlaridan foydalanish, yechilayotgan ilmiy muammo va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqarib olish qobiliyatiga ega bo‘lish kabi bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z ichiga oladi.

Amaliy filologiya mutaxassisligi ta‘limi, bakalavriat bosqichining uzviy davomi sifatida, unda hosil qilinadigan kompetensiyani ixtisoslashgan nazariy ko‘nikma va malakalar bilan boyitadi. Shu boisdan mutaxassislik o‘quv predmetlari tarkibida “Matn nazariyasi”, “Diskursologiya”, “Kommunikatsiya nazariyasi”, “Devonxona xizmati”, “Sud lingvistikasi”, “Jahon leksikografiyasi”, “Neyrolingvistika”, “Korpus lingvistikasi”, “Rasmiy muloqot etikasining lingvistik asoslari” singari kurslarning bo‘lishi maqsadga muvofiq.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda tilshunoslik bo‘yicha aksariyat tadqiqotlarning umrini o‘tab bo‘lgan talab va mezonlar asosida bajarilishi, tadqiqot xulosalarining zaruriy samaradan xoliligi, “til o‘zida”, “til til uchun”, “tadqiqotlar tilshunoslik uchun” yoki g‘arbga taqlid ko‘rinishidagi “zamonaviy” tamoyillarning chayir illat sifatida ildiz otganligi, tilshunoslikda ijtimoiy hayotdagi yechimini kutayotgan muammolarni ko‘ra olmaslik fanning hayotdan, jonli amaliyotdan uzilib qolishiga olib keldi. Bu ayrim hollarda o‘zbek tilshunosligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga daxldor emasdek tasavvurlar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Holbuki, milliy taraqqiyot ma‘naviy yuksalish demakdir, ma‘naviy yuksalish esa til bilan baravar yuz beradi va undan ajralgan bo‘lishi mumkin emas. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda allaqachon yechilgan muammolarning juz‘iy qirralariga “dolzarblik” tusini berishdan tilshunoslikning ijtimoiy taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan muammolarini aniqlash, ularni kompleks hal qilishga o‘tish, davlatning fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar uchun ajratayotgan moliyaviy mablag‘laridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa amaliy filologiya bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni, amaliy

filologik tadqiq ishlarini kuchaytirishni taqozo qiladi. Til egalarining lisoniy imkoniyatlardan pragmatik foydalanish samaradorligi masalalari bilan shug'ulladigan o'zbek amaliy tilshunosligining milliy xarakterdagi sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalolingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo'nalishlari rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg'un. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va globallashuv asrida o'zbek tilining global til korpuslariga qo'shiluvini ta'minlash tarixiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Choybonova B.M. Linguistic errors in the speech of students at the initial stage of intensive teaching of the English language: The method of activating the individual and the team: Author's abstract dis. Cand. ped. sciences. - Moscow: Moscow State University, 2004. - 20 p
2. Merkulova S.G. Modern approaches to correcting mistakes in oral speech in the study of English. // English. Supplement to the newspaper "First September". - 2002. - No. 45. -S. 5.
3. N.D.Ivitskaya. About the most typical mistakes in learning English and some ways to overcoming them. // Foreign languages in school. – 1995. – № 3. - P. 46–52.
4. Spratt M., Pulverness A., William M. The TKT: Modules 1, 2, 3. – Cambridge University Press. 2011. – 256 p.

## O‘ZBEK TILI LEKSIKASI TARAQQIYOTIDA DINAMIK OMIL

**MAHMUD RAVSHANOV,**  
*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar  
universiteti professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** O‘zbek tili leksikasi taraqqiyoti taraqqiyoti ikki omilga bog‘liq: dinamik va statik taraqqiyot omillari. Mazkur maqolada o‘zbek tili Leksik birliklari dinamikasining eng faol qatlamlari haqida ma’lumot va tavsiflar berildi. Jumladan, atoqli otlar semantikasi, so‘z o‘zlashtirish va hozirgi sharoitdagi faol qatlam leksikasi bo‘yicha.

**Tayanch so‘zlar:** leksik birliklar, faol qatlam, so‘z dinamikasi.

**Аннотация.** Развитие лексики узбекского языка зависит от двух факторов: факторов динамического и статического развития. В данной статье даны сведения и описания наиболее активных слоев динамики лексических единиц узбекского языка. В частности, по семантике именитых существительных, овладению словом и лексике активного слоя в текущих условиях.

**Ключевые слова:** лексические единицы, активный слой, динамика слова.

**Annotation.** The development of the vocabulary of the Uzbek language depends on two factors: factors of dynamic and static development. This article provides information and descriptions of the most active layers of the dynamics of lexical units of the Uzbek language. In particular, on the semantics of eminent nouns, word mastery and vocabulary of the active layer in the current conditions.

**Key words:** lexical units, active layer, word dynamics.

**Kirish.** O‘zbek tili leksikasi **dinamik** taraqqiyotida atoqli otlar tizimi va undagi nominatsiya jarayonlari turdosh otlarga qaraganda juda faol ishtirok etadi. Mazkur maqoladagi leksik birliklar tahlilida asosiy e‘tiborni statik xususiyatga ega leksik birliklarga nisbatan dinamik xususiyatga ega leksik birliklar tahlili va tavsifi yetakchi o‘rinda bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tahlilimiz jaryonida aniqlanadiki, leksik taraqqiyot dinamikasi ko‘p omillarga bog‘liqdir. Demak, atoqli otlarning dinamik xususiyati quyidagi tasnifimizdaaniq yo‘nalish va qaydlar bilan tavsiflanadi.

**Atoqli otlar:**

O‘zbek tilida atoqli otlarning deyarli barcha tiplari mavjud va ular tilda o‘ziga xos murakkab nominativ(nomlovchi) tizimni tashkil etadi:

Antroponimlar (ism, laqab, familiya, otchestvo, patronomik nomlar);

Toponimlar (quruqlikdagi tabiiy-geografik ob‘ektlar, suvliqdagi tabiiy geografik ob‘ektlar, inson tomonidan yaratilgan ob‘ektlarniig nomlari);

Zoonimlar (hayvon va boshqa xil mavjudotlarga berilgan laqab nomlar);

Astroponimlar (yulduzlar, sayyoralar va ulardagi kosmik ob’ektlar, jismlarga, hodisalarga berilgan maxsus nomlar);

Teonimiya (diniy-mistik tushunchalar, afsonaviy mavjudotlar, xudolar, payg‘ambar, avliyolar, «muqaddas» qadamjoylarga berilgan maxsus nomlar);

Fitonomiya (fitonimlar — o‘simliklarga berilgan atoqli otlar);

Xremotonimlar (jonsiz predmetlar — qurollar, qimmatboho buyumlar, musiqiy asboblarning atoqli otlari);

Xrononimlar (muayyan tarixiy davrlar, alohida tarixiy kunlar, voqealarning atoqli otlari);

Dokumentonimlar (tarixiy hujjatlar, qonunlar, aktlar va boshqalarning atoqli otlari);

Faleronimlar (maxsus mukofotlar, sovg‘alar — ordenlar, medallar, nishonlar, yorliqlar va boshqalarning atoqli otlari);

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi quyidagi leksiq guruhlardan tashkil topgan:

1. Umumiste’modagi so‘zlar;
2. Maxsus leksika: terminologiya va professionalizmlar.
3. Dialektal lksika— dialektizmlar;
4. Ijtimoiy jargonlarga oid so‘zlar;
5. Atoqli otlar tizimi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibining keltirilgan leksik gruppalar o‘zaro munosabatda. Ular o‘rtasida ichki, murakkab aloqa mavjud. Buni sxemada shartli ravishda shunday ko‘rsatish mumkin. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi undagi turli-tuman so‘zlarning oddiy yig‘indisi, inventaridan iborat emas. Lug‘at tarkibi *o‘zgarish, rivojlanish, boyish* va *eskirish* xususiyatlariga egadir. Til lug‘at tarkibida eskirishga qaraganda yangilanish va boyib borish kuchli bo‘ladi. Shu tufayli tilning lug‘at tarkibi tarixiy-ijtimoiy ehtiyojlar, jamiyat hayoti ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgarib, boyib boradi. Til lug‘at tarkibidagi potensional imkoniyat, lug‘at tarkibining iste’modagi vositalariga nisbatan miqdor jihatdan ustun turadi. Lug‘at tarkibidagi bunday xususiyat undagi so‘z boyligidan nutqiy jarayonda tanlab, bermalol va erkin foydalanish imkonini tug‘diradi [1.21-87].

Til lug‘at tarkibidagi mavjud vositalardan konkret nutqiy jarayonda, nutqiy uslublarda erkin, tailagai holda foydalanish o‘sha nutqiy shaklning leksik me‘yorlarini belgilaydi, shakllantiradi.

Til lug‘at tarkibi imkoniyatlaridan foydalanish xususiyatlariga ko‘ra *o‘zbek tilining yashash formalari* (adabiy til, dialekt va shevalar, professional nutq) o‘zaro, adabiy tilning *uslubiy ko‘rinishlari* (ilmiy-texnika tili, ilmiy-ommabop til, adabiy so‘zlashuv tili, badmiy adabiyot tili, rasmiy uslub, epistolyar uslub va b.) o‘zaro farqlaiadi. Odatda, tilning lug‘at tarkibidagn so‘zlar nutqni ijtimoiy va funksional uslubiy ko‘rinishlariga moslashgan bo‘ladi. Ma’lum uslubga moslashgan, singishgan so‘zlar tipi o‘sha uslubning *leksik me‘yorlarini* xarakterlaydi. Mana shu nuqtai nazardan o‘zbek tilining lug‘at tarkibi murakkab jarayonlar, undagi ko‘p sonli so‘zlarning turli-tuman munosabatlaridan iboratdir:

a) o‘zaro aloqador bo‘lgan leksik birliklar yig‘indisidan;

b) ichki bog‘liqlik kuchiga tayanuvchi leksemalarning o‘zaro muvofiq keluvchi munosabatlaridan iboratdir. O‘zbek tilining lug‘at tarkibi harakatda va doimo o‘shida(dinamik xususiyat). Lug‘at tarkibining harakati(dinamikasi) quyidagilarda ko‘rinadi:

1) hozirgi o‘zbek tilidan o‘tmishda ishlatilgan bir qator eskirgan so‘zlarning chiqqanligida;

2) avval faol bo‘lgan bir qator so‘zlarning nafaol qatlamga o‘tishida;

3) avval nafaol bo‘lgan ba’zi leksemalarning hozirda faollashganida;

4) bir qator eski so‘zlarning yangi so‘zlar bilan almashganida;

5) hozirgi o‘zbek tilida yangi so‘zlarning yasalişhida;

6) boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashtirilishida;

7) qo‘shma so‘zlar va turg‘un birikmalarni hosil qilishning faollashganida;

8) tilda yangi so‘z yasash modellarining paydo bo‘lganida;

9) ba’zi so‘zlar ma’nsining kengayganida;

10) aksincha ba’zi so‘zlar ma’nosining torayganida;

11) bir qator so‘zlarning eski ma’nosini yo‘qotib, yangi ma’noda qo‘llana boshlashida;

12) umumiste’mol, oddiy uslub so‘zlarining kitobiy, ilmiy ma’noga ega bo‘lib, terminlashuvida;

13) atoqli ot yangi tiplariniig paydo bo‘lganligida ko‘rinadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining harakati undagi siljishlar, o‘zgarish va rivojlanish, pirovardida lug‘at tarkibining boyishi hozirgi globallashuv davrida yuzaga kelgan bir qator *ekstralingvistik omillar* bilan bog‘liqdir. Bunday omillarning eng muhimlari quyidagilar:

1) ijtimoiy hayot o‘zgardi — Yangi O‘zbekistonda jamiyat har tomonlama yangilanmoqda;

2) o‘zbeklarda yangicha ijtimoiy dunyoqarash paydo bo‘ldi va shakllandi;

3) o‘zbek tilidan foydalanuvchi jamoaning ijtimoiy tabiati o‘zgardi;

4) uchinchi renesans davri madaniyat, davri turmush tarzi, yangicha oilaviy va maishiy munosabatlar yuzaga keldi;

5) uchinchi renesans davri ijtimoiy sohaga oid fanlar va uning zamonaviy milliy tarmoqlari paydo bo‘ldi, rivojlandi;

6) respublikada yangi, zamonaviy sanoat va qishloq xo‘jaligi(klaster tizimi) yuzaga keldi;

7) uchinchi renesans davri san‘at, adabiyot, milliy matbuot rivoj topdi;

8) o‘zbek tili radio, televideniada, targ‘ibot va tushuntirish ishlarida qo‘llanadigan bo‘ldi;

9) keyingi davrdagi, xalqaro aloqalar rivojlangan paytda o‘zbek tiliga boshqa tillardan ko‘p sonli ilmiy-texnikaviy, badiiy adabiyotlar, turli axborotlar va hujjatlar tarjima qilindi;

10) uchinchi renesansda o‘zbek tilida ko‘p sonli kitoblar, darslik va qo‘llanmalar nashr etila boshladi;

11) o‘zbek adabiy tilida ko‘p sonli mdtbuot xodimlari, radio, televidenie, nashriyot muharrirlari, olimlar ish olib bordi va ish olib bormoqda;

12) o‘zbek tili leksikasi dinamikasiga zamonaviy reklamalar, modalar va kishilarning shaxsiy mayllari ta’sir etdi;

13) o‘zbek tilida beriluvchi ommaviy informatsiya hajmi nihoyatda o‘sdi va rivoj topdi, jumladan, sport, madaniyat va boshqa ehtiyojlar.

Keltirilgan ekstralingvistik omillar o‘zbek tilining leksik tizimiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sirning konkret va aniq natijalari o‘zbek tili leksikasining uchinchi renesans davri rivojida, ayniqsa, yorqin ko‘rindi. **Ekstralingvistik omil** ta’sirida o‘zbek adabiy tili leksik me’yorlari yangi ijtimoiy-siyosiy va uslubiy talablarga ko‘ra, shuningdek, o‘zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasi va mavqeining nihoyatda kengayishi tufayli qayta shakllandi, o‘z imkoniyatlarini sharoitga mos ravishda qayta qurdi, mosladi. Yangi ijtimoiy sharoit taqozosida o‘zbek tili kommunikativ vazifasining nihoyatda kengayishi o‘zbek tili lug‘at tarkibi mazmuniy dinamikasi oldiga ulkan talablar qo‘ydi. Natijada o‘zbek tili lug‘at tarkibining yangi nominativ asosida bilan boyitish ehtiyojlari yuzaga keldi. Hozirgi globallashuv davrida o‘zbek tili leksikasini bunday boyishi(dinamikasi) quyidagi usullar bilan amalga oshirildi:

1. O‘zbek tilining o‘z *ichki resurslaridan* foydalanish(ma’no ko‘chish va so‘z yasalishi);

2. *Tashqi resurslardan* foydalanish(asosan so‘z o‘zlashtirish).

O‘zbek tilining o‘z *ichki resurslari* asosida o‘zbek tilining lug‘at tarkibi quyidagicha boyitildi:

a) adabiy tilga o‘zbek dialekt va shevalaridan zarur so‘zlarning kirib kelishi;

b) eski o‘zbek tili, jumladan, o‘zbek klassik adabiyoti tili leksik boyliklaridan barcha interpretatsion vositalardan o‘rinli foydalanishomillari;

v) an’anaviy leksik qatlamlar dinamikasini ichki va tashqi resurslar hisobiga faollashtirish;

g) o‘zbek tilining o‘z so‘zlaridan yangi so‘z va terminlar yasash;

d) so‘z yasashni faollashtirish, bu lingvistik jarayonda ayrim affikslar va modellar vazifasini kengaytirish;

ye) so‘zlarning sintaktik usulda yasalishini kuchaytirish. Bunda o‘z ichki til resurslaridan, shuningdek, o‘z til va o‘zga til materiallari qo‘shilmasidan keng foydalanildi;

yo) so‘zlarni yangi-yangi ko‘chma ma’noda qo‘llash (ayniqsa, metaforik va metonimik jarayonlar);

z) kalkalash usulida so‘z yasash qoliplarini faol tilga joriy etishda va b.

**Xulosa va takliflar.** Demak, til lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlar — unda eskirgan hodisalarning yuzaga kelishi, yangi lisoniy dinamik (o‘sish)hodisalarining paydo bo‘lishi qonuniy jarayondir. Lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlar, undagi yangilanishlar turli davrlarda ma’lum me’yorda yuz beradi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Батманов И. А. Язык енисейских памятников древнетюркских письменностей. Фрунзе, 1959.
2. Айдаров Г. Язык орхонского памятника Билге-Кагана. Алма-Ата, 1966.
3. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркских письменностей VIII века. Алма-Ата, 1971.
4. ДТС. – Древнетюркские диалекты и их отражение в современных языках. Фрунзе, 1971.



## SINTAKSISNI O'QITISH MASALALARIGA DOIR



**RANO YUSUBOVA,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
professori, filologiya fanlari doktori.*

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'limda sintaksisni o'qitish masalalari, o'zbek tili sintaktik birliklari talqinidagi asosiy atamalar, sintaksisga oid nazariy qarashlar va ularning til o'qitishdagi ahamiyati talabalarning kreativligini, ijodkorlik, matn yaratish qobiliyatini rivojlantirishning metodik asoslari tahlilga tortilgan.

Sintaksisni o'rganish jarayonida talaba kreativligini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar ularlarning sintaksis bo'yicha nazariy bilimlarini o'zlashtirishiga hissa qo'shishi va ijodiy ko'nikmalarini faol shakllantirishi ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** sintaksis, sintaktik birliklar, subyektli munosabat, atributiv munosabat, obyektli munosabat, relyativ munosabat, sintagmatik munosabat, predikativ aloqa, nopredikativ aloqa.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы преподавания синтаксиса в высшем образовании, основные термины в интерпретации синтаксических единиц узбекского языка, теоретические взгляды на синтаксис и их значение в преподавании языка.

Предполагается, что задания, направленные на формирование креативности учащихся в процессе изучения синтаксиса, способствуют усвоению ими теоретических знаний о синтаксисе и активно формируют творческие навыки.

**Ключевые слова:** синтаксис, синтаксические единицы, субъективное отношение, атрибутивное отношение, объективное отношение, релятивистское отношение, синтагматическое отношение, предикативное отношение, непредикативное отношение.

**Annotation.** The article discusses the issues of teaching syntax in higher education, the main terms in the interpretation of syntactic units of the Uzbek language, theoretical views on syntax and their meaning in language teaching.

It is assumed that tasks aimed at the formation of students' creativity in the process of learning syntax, contribute to their assimilation of theoretical knowledge about syntax and actively form creative skills.

**Keywords:** syntax, syntactic units, subjective attitude, attributive attitude, objective attitude, relativistic attitude, syntagmatic attitude, predicative attitude, non-predicative attitude.

**Kirish.** Zamonaviy ta’limda o‘zaro muloqot pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini faollik to‘liq qamrab olishi kerak. Bugungi ta’lim jarayoni reproduktiv ta’limni, ya’ni talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatish va o‘qituvchi ma’ruzada bergan bilimni seminar, amaliy mashg‘ulotlarda qaytarib olish bilan chuqur bilimga ega mutaxassislarni yetishtirib bo‘lmaydi. Zamonaviy texnologiyalar esa talabalarni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Bunda pedagog shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, talabada boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik, maslahatchilik, baholovchilik xususiyatlari shakllanadi. Demak, zamonaviy-produktiv ta’lim shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, talaba kreativligi iqtidorining muhim omili sifatida aks etishini yuzaga chiqaradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi kunga kelib oliy ta’lim tizimida o‘zbek tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasi boy tajriba to‘pladi, mustaqil fan sifatida rivojlandi, o‘zbek tilini o‘qitish masalalari bilan o‘zbek tilshunosligida H.Rustamov, M.Omilxonova, A.G‘ulomov, H.Ne‘matov, Safarova R., X.Qurbonova, A.Ergasheva, T.Yusupova [1] kabi ko‘pgina olimlar fundamental tadqiqot olib borganlar.

Ijodkorlik qobiliyati va kreativlikni rivojlantirish, ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik omillarini I.Lerner, M.Vilenskiy, S.Zayseva, Sh.Qurbonov, A.Mamatqulov; ta’lim tizimida ijodiy qobiliyatlar va kreativlikni rivojlantirish masalalarini D.Patti, M.Turdiyeva, M.Usmonboyeva, A.To‘rayev, D.Muradova, G.Ibragimovalar[2] o‘rganishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma’lumki, bilim, ko‘nikma va malakalar integratsiyasi kasbiy tajribada aks etadi. Bo‘lg‘usi mutaxassis o‘z faoliyatini samarali tashkil etishda kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lishi, ijodiy tafakkurini, kreativ sifatlarni yetarli darajada rivojlantirib borishi talab etiladi. O‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotda texnik vositalar, ekspress so‘rovlar, test so‘rovlari bilan bir qatorda, talabalar bilimni mustahkamlashga qaratilgan, tushunchalar tahlili metodi, jamoa bo‘lib ishlash kabi interaktiv ta’lim metodlari yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Maqola mazmuniga doir tahlillarni “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining sintaksis bo‘limiga oid “Sintaksis va uning tadqiq manbai” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot asosida yoritib beramiz.

**MAVZU: SINTAKSIS VA UNING TADQIQ MANBAYI**

**Savol va topshiriqlar:**


- 1.Sintaksisning o‘rganish obyektiga doir nazariy qarashlarni asoslang.
- 2.Morfologiya va sintaksisning o‘zaro munosabatini izohlang.
- 3.Sintaksisning leksika bilan o‘zaro aloqadorligini asoslang.
- 4.Sintaktik aloqa turlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni izohlang.
- 5.Sintaktik munosabat turlarini farqlang.
- 6.Asosiy sintaktik birliklar masalasiga aniqlik kiriting.
- 7.Sintaktik birlikning ikki tomoni haqida ma’lumot bering.
- 8.Sintaktik birlikning uch tomoni haqida ma’lumot bering.

**Tavsiya. Jamoa bo‘lib tushunchalar tahlili metodi asosida bilimlaringizni mustahkamlang.**

**“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI**

Atamalar	Atamalar izohi	Misollar
Sintaktik birlik		
So‘z qo‘shilmasi		
So‘z birikmasi		
Teng aloqa		
Tobe aloqa		
Sintaktik munosabat		
Predikativ munosabat		
Nopredikativ munosabat		

**Topshiriq. Tilshunoslikda mavjud nazariy qarashlar asosida sintagmatik munosabat xususida fikr bildiring. Fikringizni izohlashda quyidagi jadvalga asoslaning.**



**Topshiriq. I. Tobe aloqa turlarini predikativ aloqa va nopredikativ aloqa tarzida ajrating va aloqani yuzaga keltiruvchi vositalarni aniqlang.**

*Turobjon uydan chiqib ketdi. Birpasdan keyin ko‘cha eshigi ochilib-yopildi.*

*Xotin uzoq yig‘ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo‘ldi, o‘zini qarg‘adi, o‘lim tiladi; yig‘idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong‘i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi.*

*Ko‘cha eshigini ochib u yoq-bu yoqqa qaradi – jimjit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. Samovarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi. (A.Qahhor, Anor).*

NAMUNA: *Turobjon uydan chiqib ketdi.* Predikativ aloqa: *Turobjon chiqib ketdi.*  
 Nopredikativ aloqa: *uydan chiqib ketdi, uydan -dan chiqish kelishigi* qo‘shimchasi yordamida, sintetik forma, kelishikli boshqaruv yuzaga kelgan.

**II. Teng aloqa va tobe aloqa asosida yuzaga kelgan so‘z qo‘shilmalarini aniqlang va yuzaga kelish yo‘llarini tavsiflang.**

*Motor bir pishqirib ravon gurillay ketdi. Qalandarov mashinani oldinga, orqaga yurgizdi, maydonni bir aylandi, ko‘prikdan o‘tib, katta yo‘lga chiqqanida, shofyorni chaqirib yoniga o‘tqizdi-da, rayonga tomon yo‘l oldi. Uning mo‘ljali besh-olti kilometr yurib qaytish edi, biroq yangi mashina to‘g‘ri va ravon asfalt yo‘l havasini keltirdi-yu, rayon markaziga tushib chiqishga qaror berdi. Qalandarov yo‘l bo‘yidagi tiniq yashil daraxtlar, barra o‘tlardan ko‘zi quvonib, kishining vujudini yayratadigan may havosidan mast bo‘lib, xirgoyi qilib ketayotgan edi, yo‘l bo‘yida turgan militsioner qo‘lidagi ola tayoq bilan yo‘lning chetini ko‘rsatdi. Qalandarov militsioner ko‘rsatgan joyga kelib to‘xtadi. (Sinchalak).*

**Namuna:** *Motor bir pishqirib ravon gurillay ketdi. Bir pishqirib – ohang yordamida, ravon gurillay ketdi – ohang yordamida bog‘lanib tobe aloqani yuzaga keltirgan.*



**Topshiriq.** Qizil kitobga kiritilgan lochin qushini tasvirlab tasviriy matn tuzing. Matnda keltirilgan sintaktik birliklar o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni subyektli (predikativ, muvofiqlashuv), atributiv, obyektli, relyativ munosabat tarzida ajrating va izohlang.

**ESLATMA.** Gapda ifodalangan fikrni to‘liq tushunish uchun gapda shakliy (sintaktika) va mazmuniy (semantika) bog‘lanishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi, chunki tinglovchining olam haqidagi bilimi, ijtimoiy holati, so‘zlash jarayonida so‘zlashuvchilarning ruhiyati haqidagi bilimi, til birliklarini o‘z maqsadi yo‘lida tanlay olishi va ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishi ham e‘tiborga olinishi kerak, demak, gapning pragmatik tomonini hisobga olish zarur. Gap insonlar o‘rtasida shunchaki fikr almashishni ta‘minlovchi hodisa emas, balki ularning intellektual va ma‘naviy salohiyatini namoyon etuvchi, tafakkur diapazonini belgilovchi, madaniyatli shaxs ekanligini ko‘rsatuvchi, nutqiy sharoitda yuzaga chiquvchi hodisa hamdir. Shunday qilib, sintaktik birliklarning uch tomoni maydonga keldi: 1) sintaktika; 2) semantika; 3) pragmatika.

Ma‘lumki, so‘zlovchining asosiy maqsadi mazmunni tinglovchiga aniq yetkazish hisoblanadi, biroq, kommunikantlarda tafakkur ko‘lamining darajalanishi ularning olamni konkret va to‘liq anglashlarida xiralikni vujudga keltiradi. Bu vaziyat tinglovchining gapdan anglashilgan mazmunni to‘g‘ri anglashi uchun to‘siqni yuzaga keltiradi. Tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan *pragmatik to‘siq* termini qo‘llanadi. Mazmunni tushunishga “xalaqit qiluvchi” ushbu nutqiy hodisaga badiiy matnlarda uslubi vosita sifatida qaraladi.

**Tavsiya.** Ushbu matndagi pragmatik to‘siqni yuzaga keltirgan omillarni izohlang. Pragmatik to‘siqqa uchraganmisiz? Qanday yo‘l tutgansiz?

*Agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a‘zolariga kompost to‘g‘risida bir gapirib bersangiz. Bular haligacha hech narsa tushunishmas ekan.*

– Marhamat, – dedim-da, u yoq-bu yoqqa qarab olgach leksiya o‘qishga tushib ketdim, – o‘rtoqlar, kompost juda foydali ichimlik, uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha shirin bo‘ladi. Bizning Farg‘ona tomonlarda kompostni o‘rik, shaftoli qoqi va olichaning qurug‘idan tayyorlashadi. Xullas, kompost ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz...(X.To‘xtaboyev).



### Uyga vazifa: Mavzu asosida matn yaratish.

**Xulosa va takliflar.** Talabalarda ijodiy faoliyat jarayonini shakllantirish ularda kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitishga sabab bo‘ladi. Inson faoliyatining asosiy qismini kommunikativ faoliyat tashkil etishini nazarda tutsak, kommunikativ faoliyat mazmunini ijodiy faoliyat boyitadi, demak, sintaksisni o‘qitish orqali sintaktik birliklarning sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlarini chuqurroq o‘zlashtirish talabalarning ijodiy faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Rustamov H. Sintaksis va punktuatsiya o‘qitish metodikasi. –Toshkent,1960.; Omilxonova M. Maktabda sodda gap sintaksisni o‘rganish. –T.: O‘qituvchi, 1977.;
2. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limi mazmuni . –Toshkent, 1995.;
3. Safarova R. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. –T.:Fan, 1995.;
4. Qurbonova X. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari: Ped.fan.nomzodi ...diss. –Toshkent, 2005.;
5. Ergasheva A. Ona tili darslarida nazariy ma’lumotlarni mustahkamlash jarayonida nutq o‘stirish metodikasi. –Toshkent, 2010.;
6. Yusupova T. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. –Toshkent, 2019.
7. Лернер И. Дидактические основы методов обучения. –М.: Педагогика, 1981.;
8. Qurbonov Sh. Ilmiy ijod metodologiyasi. –Samarqand, 2005.;
9. Mamatqulov A. Kasbiy ta’limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish. Современное образование. (Узбекистан), - (2019). С.(12 (85).;
10. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.;
11. Виленский М.Я., Зайцева С.Н. Педагогические основы формирования опыта творческой деятельности будущего учителя. Учебное пособие. – М.: МГПУ, 1993.;
12. Turdiyeva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.;
13. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy majmua. - TDPU, 2016.;

14. Ibragimova G. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: falsafa doktori (PhD) darajasi olish uchun yozilgan diss. avtoref. – Toshkent, 2017.;

15. Мурадова Д. Педагогические основы развития креативного мышления учащихся в процессе обучения гуманитарным дисциплинам (7-8 классы) - Т.: дисс. автореф. канд. пед наук, УзНИИПН имени Т.Н.Кары Ниязи, 2006.



## BOLALARGA XOS MATNLARNING PSIXOLINGVISTIK TADQIQI



**NASIBA YARASHOVA,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
O‘zbek tilshunosligi kafedراسi  
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Bolaning kishilik jamiyatining a‘zosi sifatida shakllanishi butun bolalik davrida yuz beradi, biroq ancha oldinroq, hayotining birinchi haftasidanoq boshlanadi. Bunda oila, ota-onaning o‘rni, bolani kishilik munosabatlari olamiga tayyorlashi hamda zarur bo‘lgan yordami va ko‘magi asosiy vazifani bajaradi.

**Kalit so‘zlar:** voqelik, ong, olam manzarasi, til, matn tuzuvchi, retsiyent, matn proyeksiyasi.

**Аннотация.** Становление ребенка как члена человеческого общества происходит в течение всего детства, но начинается гораздо раньше, с первой недели его жизни. Ключевую роль в этом играет семья, роль родителей, подготовка ребенка к миру человеческих отношений, а также помощь и поддержка, в которых он нуждается.

**Ключевые слова:** реальность, сознание, картина мира, язык, составитель текста, реципиент, текстовая проекция.

**Annotation.** The formation of a child as a member of human society occurs throughout childhood, but begins much earlier, from the first week of his life. The key role in this is played by the family, the role of parents, the preparation of the child for the world of human relations, as well as the help and support that he needs.

**Keywords:** reality, consciousness, worldview, language, text compiler, recipient, text projection.

**Kirish.** Muloqot vositasida kattalar (avvalo, ota-ona) bolaga ta’sir o‘tkazadi. Bu ta’sirning yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin. Birinchidan, muhimi shuki, bola tomonidan katta subyekt, shaxs, jamiyat vakili sifatida qabul qilinadi. Maktabgacha yoshda, ayniqsa, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotda shaxsiy motiv ustunlik qiladi. Ikkinchidan, kattalar bolaga biror narsani bilish uchun topshiriq va qandaydir harakatlarni o‘zlashtirish vazifalarini beradi. Ma’lumki, topshiriqni bajarish maqtov yoki dakkini vujudga keltiradi. Bu munosabat, kattaning bahosi muloqot doirasiga kiradi hamda bolaga ta’sir qilishning bir yo‘li sifatida qaraladi. Uchinchidan, bolalar va uning o‘zidan katta insonlar bilan muloqot vaziyati do‘stona munosabatni ifodalab, nutqni o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev matnni turli tiplarga ajratib ko‘rsatadi [1:36]. Har qanday yaratiladigan matnda *voqelik – ong – olam manzarasi – til*

– *matn tuzuvchi – retsiyent – matn proyeksiyasidan iborat tizim unsuri* [2:12] bolaning ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Biz bolalar adabiyoti matnlarini psixolingvistik xususiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlariga ajratib tasnifladik:

**1. Bolaning til dunyosiga xos sodda matnlarda** bolaning kundalik hayotidagi voqealar rivoji, ularning tavsifi oddiy tarzda namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha ushbu matnlar o‘tgan zamonda ifodalanib, tavsifiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Bu kabi matnlarga asosan avtobiografik xarakterdagi asarlarni keltirish mumkin. Mazkur tipli matnlarda bolalar olamiga xos tasviriy, tavsifiy, izoh, xabar, hissiy ifoda mushtarak holda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida yozuvchi bolalikkdagi barcha sarguzashtlarini hech qanday mubolag‘alarsiz, real voqelik asosida tavsiflaydi: – *Qish kechalari sandalga tiqilib yotarkanman, yalinaman:*

– *Oyi, cho‘pchak aytib bering.*

– *Uxla, bolam, charchaganman.*

– *Ayta qoli-i-ing.*

– *Xo‘p, ko‘zingni yumib yotgin-da, eshit... Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda...*

– *Gap qayoqqa ketayotganini darrov bilaman.*

– *Yana obkashmi?*

– *Yo‘q, oftob...*

– *Uniyam aytgansizku*

– *Boshqasini bilmaymanda...*

– *Mayli ayta qoling. (O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari. 9–10-b.)*

Bolalar o‘z fikrlarini ifodalash maqsadida barcha qarashlarini ochiq-oydin, sir saqlamagan holda bayon etadilar. Bu esa bola tilining naqadar sof va beg‘ubor ekanligini ko‘rsatadi: – *Amaki, men-chi kechasi yotayotganimda kindigimga yog‘ surtib yotaman!.. Undan keyin-chi, amaki, men ovqat yeyishdan oldin qo‘limni yuvaman... Undan keyin-chi, amaki men ovqat yeganimda labimni chapillatmayman... Davron-chi, amaki juda yomon bola. Har kuni mening katta tuxumimni olib qo‘yadi. (X.To‘xtaboyev, Qaylardasan bolaligim. 13–14-b.)*

Matndan ko‘rinadiki, “Qaylardasan bolaligim” asarining 4 yoshli qahramoni Omonboyning maqsadi o‘ziga notanish bo‘lgan kimsaga barcha voqea-hodisalar haqida xabar berishdir. Yetkazilayotgan xabar aniq, adresli va dalillar asosiga ega bo‘lgani uchun o‘quvchida e‘tiroz tug‘dirmaydi. Bola tomonidan yetkazilayotgan xabar ham mazmunan, ham til ifodasiga ko‘ra oddiy va soddaligi bilan kitobxonda katta qiziqish uyg‘otadi.

**2. Bolaning til dunyosiga xos yorqin matnlarda** diniy-ma‘rifiy g‘oyalar yetakchilik qilib, bu orqali bolalarni yaxshilikka undash, yomonlikdan nafratlanish, to‘g‘ri va halol yashashga chaqirish singari fazilatlar ruhida tarbiyalashga yo‘naltiriladi:

– *Taom yeyishdan oldin “Bismillohu rahmonir rahim” deydi.*

– *Barakalla, qizim, ofarin!*

– *Qorni to‘yganda “Alhamdulillah, xudoga shukr” deydi.*

– *Yaxshi, davom etaver, qizim, ko‘p odobli ekansan.*

– *Nonushta tugaganda, dasturxonni qoqib, savobini umidvor arvohlarga bag‘ishladim, deydi... Chuchkurganda kafti bilan og‘zini berkitib, “la ilaha illolloh”, deb turadi. Bo‘lmasa og‘ziga shayton kirib qoladi.*

– *Barakalla, qizim, barakalla. (X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. 63-b.)*

Yuqoridagi matnda bola tilidan ifodalangan fikr orqali bolalarni odobli bo‘lishga chaqirish, turli yomon odatlardan saqlanishga intilish kabi fazilatlar mujassamlashtirilgan. Ushbu matnda bola nutqi vositasida mazmun aniq, izhor sodda, tushunarli va lo‘nda ifodalangan. Shu sababli bunday matnlarni o‘qigan bolada e‘tiroz va savollarga o‘rin qolmaydi. Chunki yorqin matnlarda majburiyat ruhi bo‘lmaydi, balki tavsiya, taklif qilish birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, yosh qizaloq sanayotgan odoblarning kattalar (bobo) tomonidan rag‘batlantirilib turishi (*Barakalla, qizim, ofarin; Yaxshi, davom etaver, qizim, ko‘p odobli ekansan; Barakalla, qizim, barakalla*) bolani yanada ruhlantirib, fikrini teran aniq ifodalashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, kattalar tomonidan bolalarga nisbatan qo‘llanilayotgan iliq munosabatlar o‘zbek milliy mentalitetini ko‘rsatib bera olgan.

**3. Bolaning til dunyosiga xos faol matnlarda** muayyan xatti-harakatni, ishlarni bajarishga undash, jonbozlik ko‘rsatish, targ‘ib qilish hamda faol harakatlarni amalga oshirishga chaqirish yetakchilik qiladi:

– *Men Azroilman.*

– *Azroil?!*

– *Ha, Azroilman, joningni olgani keldim.*

– *Oyijon! Men o‘lyapman...*

– *Dodlama, – deb boshiga bir shapaloq urdim, – menga qara, Hoshim degan bolani taniysanmi?*

– *Taniyman, Azroilbobo, taniyman.*

– *Tanisang, nega unga velosipedingni berib turmading?*

– *Berdim-ku!*

– *Nega uni akang bilan ikkovlashib urdilaring?*

– *Tavba qildim, endi urmaymiz...*

– *Demak, hammasi yolg‘onmi?*

– *Yolg‘onligini maktabga borib aytasanmi yoki joningni olib qo‘ya qolaymi?*

– *Aytaman, bugunoq aytaman. (X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib. 17–18-b.)*

**4. Bolaning til dunyosiga xos quvnoq matnlar** asosan bolalarning lingvopsixologik holatini ifodalab, yengil va quvnoq uslubda yoziladi. Bolalar nutqidagi voqealarning rivoji va bir-biriga o‘tishi quvnoq va yengil asosda ko‘chadi. Quvnoq matnlar bolaning nimadandir mamnunligi, ruhiy ko‘tarinki kayfiyati ifodasidir. Zero, quvnoqlik bola ruhiyatining ajralmas qismidir. Bolalar adabiyotidagi sarguzasht asarlarning deyarli barchasida kishini beixtiyor kayfiyatini ko‘tarishga mo‘ljallangan o‘rinlar juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Chunki bunday matnlarni o‘qiganda kishida qandaydir kulgili, quvnoq kayfiyat tug‘iladi, o‘quvchi matn mazmunini beozor, yengil qabul qiladi:

– *Yo‘lda ketayotganda:*

– *Bobojon, nega meniyam olib ketyapsiz, rostdanam sizni ko‘tarib olamanmi? – so‘radim.*

*Bobom kuldi:*

– *Yo‘q, o‘g‘lim, meni ko‘tarolmaysan.*

– *Nega bo‘lmasa unday dedingiz?*

– *Qiziq-qiziq gaplardan gaplashib ketaylik dedim-da.*

– *O‘zingiz qiziq gaplardan bilmaysizmi:*

– *Endi, o‘g‘lim, sen ko‘proq bilasan-da.*

*To‘g‘ri, menga qaraganda bobojonim qiziq-qiziq gaplardan kamroq biladi.*

*Bir marta, bolam, og‘zingga qarab gapir, degandi, bobojon, og‘zimga qanday qilib qarayman, qarasam gapirolmayman-ku, desam, bobojonim:*

– *Sen, o‘g‘lim, qiziq gap aytding-ku, – deb rosa kulgan. (X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. 65-b.)*

**5. Bolaning til dunyosiga xos chiroyli matnlarda** asosan, hayotning yorqin tomonlari, tabiat manzaralari, peyzaj tasviri go‘zal ifodalar asosida tavsiflanadi. Masalan, Anvar Obidjonning “Ona yer” she‘rida bola ruhiyatiga ta‘sir qiluvchi go‘zal manzara bor:

*Raketamda g‘izillab,*

*Parvoz qildim men Oyga.*

*Insonlar yuz ming yillab*

*Orzu qilishgan joyga.*

*Keyin o‘tdim Saturn,*

*Mars hamda Yupiterga.*

*O‘xshatmadim hech birin*

*Baxt bergan ona yerga. (A.Obidjon, G‘alati maktublar. 26-b.)*

Chiroyli matnlarning go‘zalligini ta‘minlovchi asosiy omil matnda tasvirning ta‘sirchan, kishi ruhiyatini ko‘taradigan, uni go‘zallik olamiga olib kirishga qodir bo‘lgan so‘z va iboralarning mavjud bo‘lishidir. Ko‘p holda bunday matnlarda real, go‘zal olam, romantik ravishda badiiy obrazlar orqali tavsiflanadi. Yuqoridagi satrlarda Anvar Obidjon ona zaminning naqadar buyukligini, uni hech bir sayyoraga qiyoslab bo‘lmasligini ta‘kidlagan. Ushbu holat ijodkorning nozik tuyg‘ulari orqali ifodalanishi matnni yanada ishonarli bo‘lishiga xizmat qilgan. Bularning bari ushbu matnning ham mazmunan, ham tasviriy jihatdan go‘zal bo‘lishini ta‘minlagan.

**6. Bolaning til dunyosiga xos horg‘in matnlarda** bolalarning juda ham kuchsiz harakati orqali hayotda hech narsaga erisha olmasligiga ishora qilinadi. Ayniqsa sarguzasht romanlar qahramonlari xayolot olamiga berilib, o‘zining subyektiv passiv harakatlari, pessimistik xarakter-xususiyatlari tufayli baxtsizlik, omadsizliklarga duch kelishadi:

– *Hoshim, beriroq kelchi, – dedi Otajon Azizovich barmog‘i bilan jurnaldagi bahoni ko‘rsatib, – bu baholarni kim qo‘ydi?*

– *Bilmasam... – dedim yelkamni qisib.*

– *Sen qo‘ydingmi? – so‘radi Qosimdan direktor:*

– *Nimani? – mendan batarroq hayron bo‘lib dedi Qosim...*

– *Kechirasizlar, bu ishni men qilganman.*

– Nimaga?! – sakkiz kishi birdaniga shu savolni berdi.

– Ha, men qilganman. Qosimning bu ishdan mutlaqo xabari yo‘q. Undan keyin, xullas, bu ishni men qilganman...

Tamom, hali aytganidek obro‘ ikki pul bo‘ldi. Aytilmagan gapu, qilinmagan nasihat qolmadi. Mendan shu ketishda ketaversam, tuzukroq odam chiqmas emish, agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo‘la olmas emishman.

– Yo‘q, – dedim qaysarligim tutib, – mendan agronom chiqadi, albatta.

– Chiqmaydi! – sakkiz kishi bir ovozdanda takrorlashdi.

– Bo‘lmasa zootexnik bo‘laman.

– Ilmsiz bo‘lsang, zootexnik tugul molboqar ham bo‘lolsaysan!

– Bo‘la olaman.

– Gapni ko‘paytirma, bo‘lolsaysan! – achchig‘i chiqib dedi direktor.

– Bo‘laman, bo‘laman, bo‘laman! – dedimda, eshikni tarsillatib yopib chiqib ketdim. (X.To‘xtaboyev, *Sariq devni minib*. 20–21-b.)

Bola bolada baribir. U toqqa chiqmasdan do‘lanani olishni, kon qazimasdan xazina egasi bo‘lishni, kitoblarni o‘qimasdan obro‘-e‘tibor qozonishni, ilmni egallasmasdan turib barcha kasb egasi bo‘lishni, aqlni ishlatmasdan o‘z raqiblarini yengishni orzu qiladi. “Sariq devni minib” qahramoni Hoshimjon ham roviy sifatida barcha narsaga o‘qimasdan turib ham ega bo‘la olish mumkin deb o‘ylaydi. Biroq asar voqealari shu darajada keskin tus oladiki, qahramon hech qanday kasb egasi bo‘la olmaydi, balki muvaffaqiyatsizliklarga duch kelaveradi. Asar so‘nggida obraz barcha narsaning kaliti ilm hamda kitob ekanligini anglab yetadi.

**7. Bolaning til dunyosiga xos g‘amgin matnlarda** kompozitsiyasidagi holat odatdagidan ko‘ra ham lirik bo‘yoqlarda namoyon bo‘ladi. Struktur jihatdan bunday matnlar juda ham sodda tarzda shakllanadi: – *Achchiq taqdirim, goho charaqlagan, goho bulutli o‘tgan kunlarim haqida so‘rayapsizmi, sizga bularning hech hojati yo‘qku yoki suhbat borasida dilimdagi mayda-mayda qora tugunchalardan, yelkamdan tog‘dek bosib turgan g‘am yuklaridan qutulib olishimni istayapsizmi? Bilib turibman, menga rahmingiz kelyapti, achinyapsiz. Yo‘q, menga achinishlarini hecham istamayman, ilgari istasam ham endi istamayman. Kech bo‘ldi. O‘zlari loyqa to‘la iflos chuqurga itarib yuborishadida, “voy o‘lmasam, kiyim-boshlaring loy bo‘pti-ya, kelaqol, yuvib, tozalab beraman”, deyishadi.* (X.To‘xtaboyev, *Mungli ko‘zlar*. 10-b.).

Matndan ko‘rinadiki, uning tarkibida qo‘llangan *achchiq taqdir, bulutli o‘tgan kunlar, qora tugunchalar, yelkamdan tog‘dek bosib turgan g‘am yuklari, rahmi kelmoq, achinmoq, iflos chuqur* so‘zlari “Mungli ko‘zlar” romani personaji Zafarjonning yuragidagi benihoya kuchli ruhiy iztirobni ifodalashi bilan birga, o‘quvchida ham g‘amginlik hislarini paydo qiladi. O‘quvchi go‘yoki asarning boshidanoq Zafarjon bilan birga umidsizlikka tushadi. Hayotdan bezadi. Bu matndagi leksik birliklar mashhur ruhshunos P.Pavlov aytganidek, ikkinchi signal vazifasini bajarib, insonning markaziy asab tizimidagi ma‘lum nuqtalarni “uyg‘otadi”, ya‘ni assotsiativ maydonga kiruvchi so‘zlar haqidagi obrazlarni qayta tiklaydi. Demak, adabiyotshunos olimlar tomonidan “so‘z sehri” deb ta‘riflanuvchi ushbu jarayon ma‘lum ma‘noda o‘z moddiy asosiga ega, deyish mumkin. Bunda matn o‘quvchisining tezaurusi, so‘zni va ohangni his etish salohiyati, shuningdek, muayyan adabiy jarayon me‘yorlari haqidagi bilimi ham muhim

ahamiyatga ega. Bu borada matn muallifi va o‘quvchi teng darajada bo‘lmas ekan, o‘quvchi matnda ifodalangan badiiy mazmuni hech qachon uning muallifi darajasida anglab yetolmaydi.

**8. Bolaning til dunyosiga xos aralash matnlarda** bola ruhiyatining holati aralash tarzda ifodalanib, g‘amgin va quvnoq matnlar, chiroyli va horg‘in matnlar bir paytning o‘zida namoyon bo‘ladi. Bola xarakter-xususiyati ko‘pincha bahorga o‘xshatilishi ham shundandir balki. Bir qarasangiz kulgili vaziyatni ifodalasa, bir qarasa tushkun holatga tushib qoladi: – *Keyin, hali aytganimday, quyoshning nurini hovuchimga yig‘ib yotaverdim. Rostdan ham o‘sha nurlar qayoqqa yo‘q bo‘lib qolarkin, bordiyu, hovuchimni yozib deraza yoniga borib o‘sha yerda oynaga qisib turib, ushlasamchi, deb sekin-asta borib ikki kaftimni oynaga bosib turgan edim, enam kirib:*

– *Nima qilyapsan? – deb so‘radi.*

– *Nurlarini ushlayapman, – dedim.*

– *Qanaqa nurlar?*

– *Quyoshning nuridaqa nurda, mana, oynadan o‘tib kelyapti, hovuchimga anchasini ushlab turibman...*

*Kaftimni oynadan olgan edim, yana hovuchimda hech narsa yo‘q. Alam qildi, judayam alam qildi. Enajonim anavi kuni olib kelganimiz oq qanddan olib holvaytar pishirgan ekan, o‘shani yeyayotgandayam alamim hech tarqamadi. (X.To‘xtaboyev, Jannati odamlar. 78–79-b.)*

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, matnning psixolingvistik tipologiyasida asosiy tadqiqot obyekti badiiy matndagi bolalar nutqida kuzatiladigan sodda matnlar, yorqin matnlar, faol matnlar, quvnoq matnlar, chiroyli matnlar, horg‘in matnlar, g‘amgin matnlar, aralash matnlar kabi turlari psixokognitiv metod uchun muhim asos vazifasini bajaradi. Bu boradagi tahlillar ontolingvistikada bola ruhiyatini yanada chuqurroq o‘rganishga zamin hozirlaydi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol. fanlari doktori ... diss. – Toshkent, 2015. – B. 36.

2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va yning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 12.

3. To‘laboyeva R. Bolalar xarakterini tasvirlashda kulgining o‘rni. // <http://www.sharqyulduzi.uz/shyu/2011/2011-5/rt.html>

4. Ulug‘ov A. Har bolada shaxs ulg‘ayadi // Hurriyat. – Toshkent, 1998. – № 24 (76). – B. 1.

5. Umarxo‘jayeva O. Bolalar nutqining ba‘zi fonetik xususiyatlari. O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1997. – № 5. – B. 52–53.



## USMON AZIM SHE'RIYATIDA SINTAKTIK TAKROR



**ORZIBONI YUSUPOVA,**  
*Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti  
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Badiiy matnlarda oddiy tovushlardan tortib, soʻzlar, soʻz birikmalari, gaplar, murakkab sintaktik butunliklarga cha boʻlgan oraliqdagi til birliklari takrorlanadi. Bu takrorlanishlar matnda muhim lingvostilistik va lingvopoetik ahamiyat kasb etgani bois unga ifodaning maxsus usuli – sintaktik-stilistik figura sifatida qaraladi.

**Kalit soʻzlar:** sintaktik-stilistik figura, sheʼriy matn, takror, soʻzlar, soʻz birikmalari, gaplar, murakkab sintaktik butunliklar, emotsional-ekspressivlik.

**Kirish.** Takrorning lingvostilistik va lingvopoetik ahamiyati, birinchi navbatda, asosiy maʼnodan tashqari qoʻshimcha maʼno ifodalash, oʻquvchi yoki tinglovchiga muayyan badiiy-estetik taʼsir oʻtkazish bilan bogʻliq. Ijodkorlar ifodani taʼsirli qilish maqsadidan kelib chiqib, ushbu usulga faol murojaat qilishadi.

**Adabiyotlar tahlili.** «Badiiy uslubda takrorning vazifasi, qoʻllanish doirasi jiddiy ravishda kengayib boradi, – deydi S.Karimov. – Chunki badiiy uslubda takrorning vazifasi faqatgina maʼlum narsa-hodisani yoki holatni ajratib, taʼkidlab koʻrsatish bilangina chegaralanmaydi. Badiiy asarda barcha uslubiy vositalarda boʻlgani kabi takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional boʻyoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Agar imkoniyat boʻlsa, shu vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, muallifning yoki asar qahramonining voqelikka subʼektiv munosabatini ham bera olishi kerak» [2. –B.55-56].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ularning badiiy matn tarkibida, xususan, sheʼriy asarlarda oʻrinlashuvi, yaʼni kompozitsiyasi ham turlichadir. Bu kompozitsion rang-baranglikning matn badiiy-estetik shakllanishiga taʼsiri masalasini Usmon Azim sheʼriyati misolida koʻrib oʻtamiz.

Badiiy matnda takrorlanayotgan sodda gaplarning ifoda mazmunining matn estetik samaradorligiga u yoki bu darajada taʼsiri borligi maʼlum boʻladi. Masalan, U.Azimning «Chavandoz uloqdan qaytdi piyoda» sheʼrida koʻpkarida oti qoqilib oʻlgan chavandozning uyiga qaytgan paytdagi ruhiy holati chizgilarini darak gap shaklidagi

*chavandoz xo‘rsindi/xo‘rsinar* jumlasini atrofiga jamuljam qilinadi: bo‘lgan voqeani xo‘rsinib eslaydi, uni xotiniga aytar ekan, og‘ir uh tortadi, ammo ko‘z yoshini xotiniga ko‘rsatishni istamay, yuzini chetga buradi, olam ko‘ziga qorong‘i ko‘rinadi, oti xayolidan ketmaydi, ko‘pkarida ot chopib oladigan lazzatdan endi mahrum bo‘lganligini his qiladi. Tong otguncha shu ahvolda o‘tiradi, yulduzlar esa tobora kamayib bormoqda. Shunday bir tushkun holatida xotini

... «*Hech xafa bo‘lmang,  
Sizga ot olamiz uy-joyni sotib...*» deydi.

Matnda uch marta takrorlangan *chavandoz xo‘rsindi/xo‘rsinar* gapini er kishining ruhiy holatini qanchalik ta’sirli ifodalashga xizmat qilgan bo‘lsa, aqlli xotinning bergan javobi ham ana shu darajada estetik samaradorlik kasb etgan. Ijodkor uslubida qo‘l kelgan qarshilantirish usulida takror lingvopoetik vazifani bajara olganligi bilan badiiy qimmatga ega bo‘lgan.

«Insonni tushunish kerak» she’rida da’vat xarakteridagi *Insonni tushunish kerak* gapini esa asar kompozitsiyasini ushlab turuvchi o‘q hisoblanadi. Shoir shu tezisni ilgari surdi. Endi o‘quvchida *kimni va nima uchun tushunish kerak*, degan savol paydo bo‘ladi. Shoir bu savolga javob beradi: sizni zor qilib yurgan, beparvo qaraydigan, jodu ko‘zlari bilan tushingizga kiradigan, mag‘rurlik va hayo tufayli balki sizdan yulduzlarchalik uzoqda bo‘lgan insonni tushunishga harakat qiling; jur’atli bo‘ling, shirin so‘z toping, shabada, nyp, osmon, quyosh, yer bo‘ling, uning orzusi va qayg‘usi bo‘ling. Balki o‘shanda u ham sizni tushunar, «sevaman», degan so‘zni aytar, – deydi shoir.

Shoir yana shu gapni takrorlaydi: *Insonni tushunish kerak*. Ammo navbatdagi qahramon butunlay boshqa odam. U qaltiroq qo‘llari bilan cho‘ntagini kovlayotgan, yagona so‘mini ham ichkilikka sarflayotgan aroqxo‘r. Ammo uni ham tushunishga harakat qiling, do‘stim deng, zora aroqdan yaqin do‘st ko‘rmagan yurak adashgan yo‘lidan qaytsa.

*Insonni tushunish kerak!*  
*O‘q yangradi. Endi Mayakovskiy ham yo‘q...*  
*...Erdagi xudolik joniga tegib,*  
*Mauzerni qo‘lga olgani mahal,*  
*Kutgandir:*  
*Najotkor bir kimsa kelib,*  
*Ulkan shon-shuhratning soyasigamas,*  
*Birodarlik uchun «qalaysan», desa.*

Lirik qahramon buyuk shoirni hech kim tushunmaganligidan, uning qalb yarasiga malham bo‘lolmaganligidan afsuslanadi.

*Insonni tushunish kerak!* Bir, ikki, uch, to‘rt takrorlagandan keyin shoir *Kechirasizlar, orzumning qanoti uzunroq. Bunday bo‘lmaydi...* deydi va tushunmas odamlar hali ko‘pligini esga oladi, takrorlashni to‘xtadi. *Tushunish va tushunmaslik* tushunchalarini zidlantirib, ifodada keskin burilish yasaydi va quyidagi xulosani beradi:

*Biroq menga tuyuladi:*  
*Jami dushmanlarim,*  
*Sevmaganlarim –*  
*Men tushunmagan do‘stlarim.*

Avval (...), davomida (!) belgilari bilan berilgan *Insonni tushunish kerak* gapi har safar biridan ikkinchisiga qarab o‘tib, ohangi ko‘tarilib boradi va she‘r oxirida birdaniga pasayish sodir bo‘ladi. Shoir aytmoqchi bo‘lgan asosiy fikrini – *Meni ham tushunish kerak, tushunmaganlar esa mening do‘stlarim emas*, – degan gapini xotirjam tarzda ifoda qiladi. Shoir o‘zini tushunish kerakligini da‘vo qilmaydi, unga da‘vat ham etmaydi, biz uni ichdan his qilamiz. Matnda *tushunish* va *tushunmaslik*ning qarshilantirilishi va bunda sodda gap takrorining ishtiroki matnga badiiy quvvat beradi.

«Boysun qirlarida bir o‘zim kezdin» she‘ri aynan shu misra bilan boshlanadi va nihoyasiga yetadi.

*Boysun qirlarida bir o‘zim kezdin,  
Kuz edi. Daralar tumanni quchgan.  
Avval eshitgandim. U mahal sezdim,  
Mening bir do‘stimning chirog‘i o‘chgan.*

Olamdan o‘tgan do‘stini yod olgan lirik qahramon yonida yaqin bir kishisining yo‘qligini yurakdan his qiladi, iztirob chekadi. Kuz, daralarni tuman qoplagan, osmon ola bulutli, toshlarning ham u bilan gaplashgisi kelmaydi. Bir paytlar do‘sti bilan qo‘shiq aytmoqchi bo‘lganini eslab, kuylay boshlaydi. Unda o‘z dardiyu do‘stining g‘ami mujassam. Tun bostirib kelavergani sayin kuylash ham qiyinlashadi. Bugun ikkimiz uchun kuyladim, ertaga, indinga, undan keyin nima bo‘ladi? deydi shoir.

.....  
*Boysun qirlarida bir o‘zim kezdin...*

She‘r boshida aytilgan misraning asar oxirida ham keltirilishi shoir qalbida kechayotgan mahzun ruhiy iztiroblarning hamon davom etayotganiga ishoradir.

«Hayot qo‘shig‘i» she‘ri 30 misradan iborat va uning dastlabki 5 qatori she‘r yakunida aynan takrorlangan:

*Bog‘ qo‘ynida ikki daraxt  
Bir biriga intizor.  
Sen - bir daraxt,  
Men - bir daraxt,  
Kuyib-kuyib o‘tdik, yor.*

Lirik qahramon umr fasllaridan samarali foydalanmaganiga afsus chekadi. Ammo endi nadomatning foydasi yo‘q. Endi u daraxtga o‘xshab yerda tomir otgan, yerga bog‘langan. Uning sevgilisi qismati ham shunday bo‘lgan – u ham go‘yo daraxtga aylangan, taqdirini o‘zgartirishga kuchi yetmaydi. Oshiq'larga nima qolayapti – taqdirga tan berib yashash. Misralarning bu tarzda aynan takrorlanishi ana shunga ishoradir.

24 misradan iborat «Alpomish xususida shoir do‘stimga maxfiy xat» she‘ri  
*Arpali cho‘lida Alpomish uxlar.*

*Uni uyg‘otmayman,  
deb boshlanadi va shundan so‘ng savol qo‘yadi:  
Uyg‘onsa, nima ish buyuramiz unga,  
Xurshid Davron?*

She‘r tarkibida uch marta takrorlangan ushbu bandga shunchaki tasviriy vosita deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. U ijodkor tafakkurini harakatga keltiruvchi dvigatel vazifasini o‘taydi, qalb dardini aytib olishga qulay sharoit yaratib beradi. Xo‘sh, Alpomish uyg‘onsa

nima ish qiladi? Pista sotadimi, paxta teradimi, imonni sotmoqlikni yoki mukofot olmoqlikning yo‘llarini, pivo ichishni, ko‘chirmachilik qilishni o‘rganadimi, ayollarning qilmishini ko‘rib qanday chidaydi? Mana shu so‘roqlarni berish jarayonida yuqoridagi misra takrorlanaveradi. Bu bilan shoir tajohili orifona san‘atini ham qo‘llaydi. Bilib-bilmaslikka olib do‘stidan so‘rayveradi. Ko‘nglida tugib qo‘ygan gaplarini javob tarzida aytaveradi. Mana shu ma’noda matndagi takror usuli o‘zining ko‘pchilik matnlarda bajaradigan odatdagi tasviriylik doirasidan chiqib, ikki lafziy san‘atni o‘zida mujassam qilgan kuchli lingvopoetik vositaga aylanadi.

U.Azimning Elbek baxshi siklida yaratgan va «Baxshiyona» kitobiga kiritilgan she’rlaridagi takrorlar shoir asarlari poetik sintaksis namunalarining gultoji deb ayta olamiz: *(Elbek baxshining shogirdi) Elomon yana ko‘p aytdi, emranib turib xo‘b aytdi, jo‘shib aytdi, shoir-da, ba‘zan qo‘shib aytdi. Shunda Elbek baxshi: «O‘, bolam! O‘, shoirlikda men yetmagan nolam, baxshi bo‘lib to‘liqib qolibsana, ilhom deganiga yo‘liqib qolibsana, endi senga oxirgi nasihatim shudir», deb ko‘ksida qo‘zg‘algan yelga soqoli pirillab, ovozi chaqmoqday gurillab, bir so‘z deb turgan ekan:*

*Ustozim deganing she’rfurush chiqsa,  
Suyganim deganing erfurush chiqsa,  
Podshohim deganing elfurush chiqsa, –  
Chidagin, bolam-a, chidagin,  
Dardlaring taningga joylansin.  
Chidagin, bolam-a, chidagin,  
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!  
Chin qolib, yolg‘onlar topsa marhamat,  
Yaxshimas, yomonlar topsa marhamat,  
Aldamchi zamonlar topsa marhamat  
Chidagin, bolam-a chidagin,  
Dardlaring taningga joylansin.  
Chidagin, bolam-a chidagin,  
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!*

7 qatorlik har bir parchada takrorlanayotgan keyingi 3 qatorni olib tashlash mumkinmi? Mumkin. Ammo bu o‘rinda ifoda jiddiy zarar ko‘radi. Birgina *Chidagin, bolam-a, chidagin* misrasining takrorlanishi keyingi uch qator zimmasida turgan tasvirdagi emotsional-ekspressivlik, ifodadagi iztirob yukini ko‘tara olmaydi.

Mana shu tarzda U.Azimning «Rashk, g‘iybatning to‘lqinlarida...», «Ona, kelganingizda...», «"Ha" – oson», «Bo‘linib borayapman ming bir bo‘lakka...», «Bu tosh g‘arib edi...», «Nodramatik ballada yoki beg‘am marsh», «Tegirmon toshi misoli...», «Osmon uzilib tushdi...», «Bog‘ ichinda bir daraxt...», «Shamollar oqib yotar...», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Devor yoxud Saddi Iskandariy», «Bog‘im ketgan – qolgan ko‘nglim yoboni...», «Go‘ro‘g‘li» singari o‘nlab she’rlarida asar kompozitsiyasi va mazmun ifodasida muhim o‘rin tutadigan sodda gap shaklidagi sintaktik takrorning turli xil namunalarini uchraydi va ular quyidagi vazifalarni bajaradi: 1. Agar she’riy bo‘laklarning boshida va oxirida takror usuli qo‘llansa, ularning birinchisida asosiy g‘oya tezis sifatida beriladi va davomida ana shu doiradagi lirik kechinmalar bayon qilinib, oxirida yana eng muhim deb qaralgan fikr ta’kidlanadi. Bu bilan ham she’r ruhi,

ham o'quvchi yoki tinglovchi kayfiyati bir maromda ushlab turiladi. 2. Boshqa bir holatda har bir she'riy bo'lakning boshidagi misra takrorlanadi, davomida esa unga sharh beriladi. 3. Har bir she'riy bo'lakning oxirida takror usulining qo'llanilishi bilan misradagi fikrning muhim va xulosaviy ekanligiga ishora qilinadi, asarga o'ziga xos ohang va tugallik bag'ishlaydi. Undan oldingi misralar uning izohi tarzida keladi. 4. She'riy matnning o'rtasida kelgan takrorlar esa bandlararo zanjir vazifasini o'taydi, ifoda tizginini o'z qo'lida ushlab turadi, muallifning ifodada chalg'imasligiga ko'maklashadi. U o'zidan keyingi fikrni oldingisi bilan bog'laydi, oldingi jumlada ochilmay turgan fikrning keyingi jumalarda ochila borishiga sharoit yaratib beradi.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, Usmon Azim she'riyatida sintaktik takror nafaqat badiiy matn qismlarini o'zaro bog'lab turishga xizmat qiladi, balki bildirilayotgan mulohazani ishonchli sharhlaydi, ritorikani kuchaytiradi Aynan ana shu ritorika tufayli takror usuli ta'sirchanlik vositasiga aylanadi, ongda fikr va hissiyot haqida chuqur taassurot qoldiradi.

### ADABIYOTLAR:

1. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
2. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994.
3. Mamajonov A. Takror va uning sintaktik-stilistik funksiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. – № 6. – B.59-61.
4. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Shofqorov A. Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari: filol.fan.nomz....diss. – Toshkent, 2012.

## ESHQOBIL SHUKUR SHE'RLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

**IRODA ERNAZAROVA**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Eshqobil Shukur she'rlarining leksik, stilistik xususiyatlari lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan hamda shoirning til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati misollar bilan ochib berilgan. Shuningdek, shoirning o'xshatishlarni yaratishdagi o'ziga xosliklari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetik tahlil tamoyillari, ijodkor uslubi, metafora, kontekstual sinonimiya, takror, lingvomadaniy birlik, epitet.

**Аннотация.** В данной статье лингвопоэтически проанализированы лексические и стилистические особенности стихотворений Эшкобила Шукура, а также на примерах раскрыты навыки поэта в использовании языковых возможностей. Также раскрываются особенности поэта в создании аналогий.

**Ключевые слова:** принципы лингвопоэтического анализа, стиль Творца, метафора, контекстная синонимия, повторение, лингвокультурная единица, эпитет.

**Annotation.** In this article, the lexical and stylistic features of Eshkobil Shukur's poems are analyzed linguopoetically, as well as the poet's skills in using language capabilities are revealed by examples. The features of the poet in creating analogies are also revealed.

**Keywords:** principles of linguopoetic analysis, Creator's style, metaphor, contextual synonymy, repetition, linguistic and cultural unit, epithet.

**Kirish.** Shoir va yozuvchilarning ijodini lingvopoetik tahlil qilish orqali ularning mahorati va til imkoniyatlaridan qanchalik foydalanganligini bilish mumkin. Lingvopoetik tahlil olib borishda muallifning individual uslubi, badiiy matnning mohiyati va estetik vazifasi, badiiy matn estetik ta'sirini oshiruvchi badiiy aktuallashgan leksik vositalarning tahlili kabi masalalarga alohida to'xtalish lozim. Chunki lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida paydo bo'lgan va yozuvchi yoki shoir badiiy to'qimalarining estetik ta'sirini til vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlarini ochib beruvchi yo'nalish sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida [5] ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan natijada Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov [6], Muhammad Yusuf [8] kabi ijodkorlarning asarlari tili hamda xalq og'zaki ijodi namunalarining katta qismi [7] lingvopoetik jihatdan o'z

tadqiqini topgan. Ammo zamonaviy o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos vakili Eshqobil Shukur ijodi bu jihatdan o‘rganilmagan. Zero serqirra ijodkor Eshqobil Shukur ham o‘zining so‘z qo‘llash mahorati bilan ona tilimizning estetik jilosini, naqadar boy til ekanligini ochib bergan ijodkorlardan biri sanaladi. Uning she‘rlari yurakka tez hamda chuqur kirib boradi. Eshqobil Shukur she‘rlarida uchraydigan o‘ziga xos o‘xshatishlar, poetik aktuallashtirgan leksik birliklar, tasviriy vositalar tahlil qilinganda ijodkorning til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** So‘z takroridan foydalanish ham ijodkorning badiiy maqsadini ta‘sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Shoirning bir she‘rida she‘rning boshidan oxirigacha takror vositasida hosil qilingan ijodiy ko‘rinish asarning jozibador qurilishini ta‘minlagan:

Suv ustida, suvlar ustida

Yuraklarim chisirlaydi-ey...

... O‘t ustida, o‘tlar ustida

Ko‘z yoshlarim daryo bo‘ldi-ey... ( “Hamal ayvoni” 18-b.)

So‘z birikmasining yuqoridagi takrori, nafaqat kompozitsion jozibadorlikni ta‘minlagan, balki mubolag‘aviy tasvirning dinamik darajasini ham ochib bergan.

Har bir ijodkor qo‘liga qalam olib yaxshi asar yozish niyatida qog‘oz qoralashga tushar ekan, o‘z g‘oyasini o‘quvchiga yetkazish, badiiy ifodani quyuqlashtirish, uni hishayajon bilan boyitish uchun, albatta, so‘z boyligiga tayanadi. Har bir so‘z o‘z shakl-shamoyili, rang-bo‘yog‘i, salmog‘i va ohangiga ega. Ijodkor so‘z sehri, jozibasini ko‘rsatishda badiiy tasvir vositalari, ma‘no ko‘chish usullaridan foydalanadi. Ular asar jozibasini ko‘rsatish va ijodkor mahoratini namoyon etishga xizmat qiladi. Tasviriy vositalar yordamida narsa-hodisalarning ba‘zi bir tomonlari, alohida belgilarini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishiladi .

Yangi ma‘no so‘zning tildagi ma‘nosiga xos bo‘lmagan, muallifning nutqiy vaziyatidan kelib chiqib yaratiladigan “sun‘iy ma‘no” dir. Yangi ma‘no ko‘pincha o‘ziga xos badiiy-tasviriy vositalar yordamida yuzaga keladi. Albatta, ijodkorning individual uslubi takomilida ham ijodida qo‘llangan badiiy-tasviriy vositalarning ham o‘rni katta. Eshqobil Shukur she‘riyatida ham metafora, epitet, metonimiya, oksyumoron kabi badiiy-tasviriy vositalar katta qismni tashkil qiladi.

Badiiy aktuallashtirgan leksik vositalar asosida o‘xshatish, qiyoslash, jonlantirishdan iborat mantiqiy tushunchalar yotadi va bu badiiy matn tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, o‘xshashlikka asoslangan ma‘no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma‘no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri. Metaforaning ikki turini farqlash mumkin: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Eshqobil Shukur ijodida muallif metaforalari yetakchilik qiladi. Shuningdek, ijodkor o‘xshatishlarining asosida tilning mental jihatlarini, lingvomadaniy asoslari mavjud. Ma‘lumki, she‘riyatda eng asosiy tasvir manbai sifatida yurakka nisbatan xilma-xil o‘xshatishlar ishlatiladi. Eshqobil Shukur ham ayriliq azobini tortayotgan yurakka nisbatan o‘ziga xos o‘xshatish ishlatadi:

Yurakkinam bo‘zlab chiqar tun bo‘yi shamday giryon,

Yurakkinam – kemalari qaytmagan yetim qirg’oq. (“Sumbula”)

“Mag’lubiyat” she’rida esa shoir o‘zini tashlandiq uyga, bo’shab yotgan tushga, buyuk urushda yiqilgan bayroqqa va qafasdagi sho’rlik olmaxonga o‘xshatadi. Bu o‘xshatishlar bejizga ishlatilmagan. Chunki shoir ifoda berayotgan kuchli umidsizlik kayfiyati aynan shunday o‘xshatishlarni talab qilmoqda.

“Og’iroyoq toshlarning homilasi–shoirilar” (“Bitiktoshlar homilasi”),

Eshqobil Shukur o‘z hissiyotlarini o‘quvchisiga yuqtirish maqsadida badiiy-tasviriy vositalardan unumli foydalanadi. Ayniqsa, uning ijodida uchraydigan metaforalar o‘ziga xos ifodalarga egaligi bilan ajralib turadi:

Qara, qanday moviy shamol yollari,

Qanday shirin uxlar momaqaldiroq. (“Hayotga qasida”)

Muzliklar kulgusi qanday otashin,

Qanday so‘zanalar to‘qiydi chaqmoq....

Ko‘rinib turibdiki, shoir badiiy olamida shamolning yoli bor, momaqaldiroq uxlaydi, muzliklar kula oladi, chaqmoq esa so‘zanalar to‘qiy oladi. Chunki shoirning tafakkurida ular shunday tasvirga ega. Shoirning o‘zi bu haqida aytgan fikrlari yuqoridagi xulosani dalillaydi: “...Yo‘q, men boshqa narsani izlayapman. Bolaligimdan shu kunlargacha men hamma narsada ruh bor, ya’ni ular tirik deb o‘ylaganman. Yerd ham, daraxtda ham, bir parcha bulutda, suvda, shamolda, olovda ham hammasida ruh bor deb ishonganman. Shuning uchun men ular bilan gaplashishni yaxshi ko‘rganman. Mening har narsadan tiriklik izlaganim rost” .

Haqiqatan ham shoirning ijodida tabiat hodisalari va manzaralari bilan bog‘liq badiiy tasvirlar katta qismni egallaydi:

Yaraqlagan yag‘rinda

Semiz qirlar xarsillar. (“Ko‘pkari”)

“Kuy ichgali ko‘nglimga so‘zlar qo‘ndi”, “Vahm tush og‘ushida chayqalib qo‘yar ovul”, “Faqat eshigingni tinar ko‘zlarim”, “Qular yuragingning darbozalari”, “Kelinlarday titrar qizg‘aldoq”, “Sokin-sokin chayqaladi dard”, “Bulutlar yo‘rgaklaydi faryodlaringni”, “Besamar kunlarim sochlarin yuldi”, “Qovjiragan haqiqat labi”, “Don kabi sepildi sovuq tumanlar”, “Uylarning ko‘zlari derazalarda”, “Sevgi tandirida qizargan ko‘ngil”, “Sarg‘aygan qor kabi erib bitar dard”, “Bo‘ronlar bo‘kirdilar”, “Kunlarini o‘rab po‘staklariga Qora terga tushib harsillar iyun”, “Ayolday bo‘shalar miltiqlar o‘qdan... Boshlarda g‘oyalar pishar bilqillab..”, “Yurakning yolini taraydi o‘lim”, “Daryoday tirilib ketadi stol”, “Ko‘zlari shamolday xotiralar” “Armonday tizilib turar daraxtlar”, “Qurbaqaday biqirlar qumg‘on” , “Changaroqda g‘uj-guj yulduzlar G‘ing‘illaydi bolarilarday” , “Keng, bahaybat osmon tog‘orasida Cho‘g‘ olib yugurib kelayotir oy” , “O‘zini har kuni bir yangilab ola, O‘n bor erdan chiqqan xotinday dunyo”, “Besh yuz yil berida laqillar yolg‘on”, “Yurakning yolini taraydi o‘lim”, “O‘limni singilday qarshilash kerak”, “Bir kosa o‘limday ichildi qasam”, “Yurakkinam – kemalari qaytmagan qirg‘oq”, “Ko‘nglim- yetim qush”, “Gado to‘rvasiga o‘xshaydi qo‘ling. O, mening bechora qushcham, o, dilim...” kabi kognitiv metaforalar uchraydi.

“Gado to‘rvasiga o‘xshaydi qo‘ling.

O, mening bechora qushcham, o, dilim...”

Shu she’rida shoir dilga murojaat qilib, uni g’arib, uyasi buzilgan, adashgan qushga o’xshatadi (“Hamal ayvoni” 121-b)

Yuragim-uloqdir (“Men va musicha”), “Moviy arvoh — bayroqlar”, “Osmon – kuyindilar kuydirgan hovuch”, Men g’amli ilonman, qayg’uli ilon, Avralgan chumchuqday chirqiraydirman. (“Avralgan ilon”), “Yuragim so‘zlarning dasturxonidir, Yuragim dasturxon, xalqim” (“Mamashrayim baxshi”) kabi badiiy-tasviriy vositalar shoirning ifoda mahoratini ko’rsatadi. Umuman olganda, shoir ijodida keng qo’llanilgan o’xshatishlarning barchasi she’rlarining estetik ta’sirchanligini oshirgan hamda muallif hissiyotlarini o’quvchi tasavvurida aniq gavdalantirishning muhim lingvopoetik vositalaridan biri bo’lgan.

Eshqobil Shukur hissiyotlar dinamikasini aks ettirish jarayonida shunday ijodiy yondashadi, betakror tasviriy ifodalar hosil bo’ladi:

Olti asr bo’ylab hazrat Navoiy –

Tafakkur poytaxti, Tuyg’u poytaxti. (“Millat vijdoni”)

Sen – xotira yurti, Isroil Subhon. (“Hamal ayvoni” 224-b)

Eshqobil Shukur ijodida havo (so‘z), po‘lat (til), shirin-shakar (kunlar), suruv-suruv (qayg’u), janda (bulut), gultug’ar (tosh), yuraksiz (stol), gung(gul), shaffof (sukunat), avliyo (baliq), qanotli (tuyg’ular), oyli (pallalar), uchargul (qush), yumshoq (suyak), rangpar (havo), telba (asr), pufak (yulduzlar), oydin (xo‘rsiniq), tillo (kiprik), sochqi (tovush), kungi (kulgu), tilsiz (qatag’on), hasratli (hujra), tilanchi (ko‘zlar), bir qultum (so‘z), daydi (dardlar), quvg’indi (xotiralar), vazmin (bosqin), tantiq (bahor), yig’loq (tosh), qofiyasiz (tushlar), ivirsiq (falak), kuyuk (tabassum), sersut (bulutlar) kabi kognitiv epitetlar qo’llanib shoir so‘z ijodkorligining o‘ziga xos jihatlarini belgilab bergan.

Eshqobil Shukur she’rlari tilimiz boyligini o‘zida mujassamlashtirgan o‘ziga xos manba hisoblanadi. Unda muallifning individual uslubi, teran tafakkuri hamda badiiy matnning ifoda imkoniyatlari o‘z aksini topgan. “Aytish mumkinki, badiiy nutq o‘z tabiati, mohiyati va maqsadiga uyg’un holatda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Qashshoq nutq hech qachon estetik ta’sir quvvatiga sohib bo‘la olmaydi, estetik quvvatsiz esa badiiy nutq o‘zining bosh vazifasini bajarishi mushkul. Shuning uchun ham haqiqiy so‘z san’atkorlari asar tilining boyligi ustida muttasil mehnat qilganlar, tinimsiz izlanganlar, tilning turli sathlaridagi rang-baranglikning betakror imkoniyatlarini kashf etganlar. Chinakam boy, rangin nutqning nodir namunalarini yaratganlar. Badiiy adabiyotimiz tili jamiyatimiz a’zolarining boy nutq tuzish sinoatlarini o‘rganishlari uchun bitmas-tuganmas ma’ba, o‘ziga xos maktabdir” [10].

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, Eshqobil Shukur she’rlarining lingvopoetik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ijodkor she’rlaridagi poetik aktual birliklar indeksini tuzish nafaqat ijodkorning individual so‘z qo‘llash mahoratini anglashga, balki, tilimizning nozik ma’no qirralarini ochishga ham xizmat qiladi. Inchunin, “Lingvopoetik tahlilning poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash tamoyili asosida poetik aktual lisoniy birliklar indeksini tuzish ham mumkin. Bu tamoyil asosidagi lingvopoetik tahlil natijasi o‘laroq asar badiiyati uchun xarakterli bo‘lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitetli birikmalar, metonimiya, metaforalar, o’xshatishlar kabi) aniqlanadi”[1]. Darhaqiqat, badiiy matnga lingvopoetik

yondashish orqali matnni takrorlanmas, bir butunlik sifatida o'rganib, so'z badiiyatining tahlilini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Lingvopoetika sohasi badiiy matnda qanday til vositalari yordamida fikrlar ifodalanishini va o'quvchiga qanday emotsional-estetik ta'sir ko'rsatishini o'rgatibgina qolmay, ijodkor individual uslubining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi. Demak, Eshqobil Shukur she'riyatining lingvopoetik tahlil qilinishi o'zbek adabiy tilining, jumladan, o'zbek poetik nutqining o'ziga xos jihatlarini, betakror imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa o'z o'rnida o'zbek tilidagi badiiy matnlarning betakror imkoniyatlarining ochib berilishiga zamin yaratadi.

### ADABIYOTLAR:

1. Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи. Поэтика. – М.,1969. – 256 с.
2. Каримов С. Бадийй услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1994. – 72 б.
3. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни //Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Университет, 2002. -Б.22-28.
4. Роман Якобсон. Поэтика масалалари. И.Мирзаев таржимаси. – Тошкент: ЎМЭ, 2004. –94 б.
5. Мирзаев И.К. Лингвопоэтика: юзага келиши, муаммо ва ечимлари// Лингвопоэтика, структур филология ва когнитив таълим муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. - Самарқанд, СамДУ нашри, 2006. -232 б.
6. Йўлдашев М. Бадийй матн ва унинг линвопоэтик таҳлили. –Т.: “Фан” нашриёти, 2007. –123 б.
7. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. –Тошкент, 2005. – 27 б.
8. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол.фан.номз. ...дисс. автореф. –Тошкент, 2007. – 25 б.
9. Jalolov J. (2022) Badiiy matnlarning lingvopoetik tahlili // Science and innovation 1(8), 1051-1054.
10. Маҳмудов Н.Ўқитувчи нутқининг маданияти. – Тошкент,2009. – Б. 156.
11. <https://kh-davron.uz/>
12. <http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/sheriyat/211-lirika.html>.

## PSIXOLINGVISTIKA VA BADIY MATN

**OMONGUL XOLIBEKOVA**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,  
o‘qituvchisi, filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Maqolada psixolingvistika va badiiy matnning o‘zaro munosabati, o‘ziga xos xususiyatlari va turli matnlarda ifodalanish masalalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** psixologiya, lingvistika, retsipient, psixolingvistika, ruhiy holat, assotsiativ.

**Annotatsiya.** В статье описывается взаимосвязь психолингвистики и художественного текста, ее особенности и вопросы выразительности в различных текстах.

**Ключевые слова:** психология, лингвистика, реципиент, психолингвистика, психическое состояние, ассоциативность.

**Abstract.** The article describes the relationship between psycholinguistics and artistic text, its specific features, and issues of expression in different texts.

**Key words:** psychology, linguistics, recipient, psycholinguistics, mental state, associative.

Zamonaviy tilshunoslik tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. Buning asosini, shubhasiz, tilshunoslik va boshqa fanlar o‘rtasidagi aloqadorlik ta’minlaydi. Matnning kelgan psixolingvistikada ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – retsipientdan iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Ma’lumki, hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. Psixolingvistikaning asosiy tadqiq obyekti nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan shaxs, til sohibi hisoblanadi. Badiiy matni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan M. Yo‘ldoshev oz ilmiy ishida professor N.Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslatib o‘tadi: tilni faqat va faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida insonning tabiiy tilni , bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, yo‘naltirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy ruhiy zamindan mosuvo bo‘lgan sun’iy tilga tenglashtirishdan boshqa narsa emas”.

**Adabiyotlar tahlili.** Psixolingvistika sohasi psixologiya va tilshunoslik fanlarining hamkorligi natijasida yuzaga kelgan soha ekanligi barchamizga ma’lum. Bilamizki, bu soha XX asrning 50-yillarida vujudga kelgan va psixolingvistika termini 1953-yilda rasman tan olingan. Bu soha rivojiga ko‘plab olimlar o‘ziga xos ravishda anchayin xissa qo‘shishgan; Amerikalik olimlar Charlz Osgud, Djon Keroll, Tomas Sibeok; rus

tilshunoslari A.A.Zalevskaya, A.I.Komarova, V.P.Belyanin; o‘zbek tilshunoslari orasida ham bir qator tilshunoslar psixolingvistika sohasida o‘z tadqiqotlarini olib borganlar, bular qatorida D. Xudoyberganova, M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshev, N.Mahmudov va boshqalarning ilmiy ishlari orqali ham ko‘rishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Psixolingvistika orqali biz psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari uyg‘unligida o‘rganamiz, bundan kelib chiqadiki bizda psixologik adabiyotlar va badiiy adabiyotlarning farqni anglashimiz joiz bo‘ladi. Psixologiyaga oid adabiyotlarda inson emotsiyasi affect, hissiyot, kayfiyat va stress kabi turlarga bo‘lib organiladi. Bundan ko‘rinadiki badiiy adabiyot bu hissiyotlarni barchasini ko‘rsatib berish imkoniyatiga ega. D.Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tahlili” nomli monografiyasida badiiy matnga M.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlari orqali ta’rif beradi “insonni ruxan to‘lqinlashtirish, yig‘latish, kuldirish, hayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarini o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi”[1]. Insonning ruhiy holati aks etgan badiiy parchalaar matnlar shuni ko‘rsatadiki, ularning sintaktik shakily tuzilishi hamda matn yaratishga yordam beradigan so‘zlar birliklar qanday bo‘lishi aynan matn ifodalayotgan hissiyotning xarakteri belgilab beradi. Shuning uchun ham muallif shu hissiyotga mos keluvchi, o‘quvchi ruhiyatiga kuchli ta’sir etuvchi va o‘quvchi ongida o‘sha holatlarni jonlantiradigan darajadagi munosib so‘zlardan foydalanishi lozim. V.P.Belyanin ta’kidlaganidek: “bu matnning muhim psixolingvistik xususiyatlaridan biridir”, Matnda psixologik holatlarni ifodalashda assotsiativ so‘zlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday sozlar matnda o‘ziga xos “assotsiativ maydon ” hosil qilib matn o‘quvchisining ruhiyatida ham muayyan holatni yuzaga keltiradi [2]. Bunday holatning yuzaga kelishiga matnda qo‘llangan so‘zlar psixologik jihatdan o‘quvchi ongida qayta gavdalanadi.

Bilamizki, so‘zlar o‘z ma’nosi bilan o‘quvchi inson psixikasiga ta’sir ko‘rsatadi. Inson so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali xis etgan kechinmalarini ya’ni ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli ham muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assotsialarni ham paydo qiladi. Agar matnda bir assotsiaga kiruvchi so‘zlar qo‘llanilgan bo‘lsa, ular o‘quvchi psixologiyasida yanada kuchliroq ta’sirga ega bo‘ladi. Bu hodisa har bir tildagi matnlarda bo‘lishi mumkin, so‘zlarimizning isboti sifatida quyida ikkita til: o‘zbek va ingliz tillaridagi matnlarda inson psixologiyasida matndagi mazmunni yanada kuchliroq gavdalandirish uchun assotsiativ so‘zlar qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tilidagi matnlarda assotsiativ so‘zlarning qo‘llanishini D. Xudoyberganova o‘z monografiyasida A. Qahhorning “Dahshat ” hikoyasi orqali ko‘rsatib beradi: “Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab qarshisida esayotgan shamolga so‘z bermay, ba’zan irg‘ishlab borar edi biroq go‘riston ko‘chasiga burilib salobat bilan tebranayotgan qop-qora chinor ostida oqarishib tugan sag‘analarni, belgisiz zulmatni ko‘rganda yuragi ovushdi-yu, zovur ko‘rigidan o‘tob ikki qadam yurgancha to‘xtab qoldi. Dahshat uning yuragiga rahna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari hayolidan ko‘tarilib, ko‘z oldiga oppoq kafanga o‘ralib sag‘ana va go‘rlar atrofida yelib

yurgan arvohlar keldi. Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi ro‘molini bir qarich ko‘targanday bo‘ldi. Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi o‘likdan qo‘rqmasligini pisanda qilayotganday baqirib, "O‘likning joni yo‘q, O‘likning joni yo‘q!" - deb olg‘a intildi. Shu yugurganicha chinor ostidagi onxazratim sag‘anasi oldiga to‘xtadi, choynak bilan qumg‘onni oyog‘i ostiga qo‘ydi, paranji-chimmatini bir chekkaga tashladi, ichida "ko‘pi ketib ozi qoldi," - deb ichida suyundi". (A. Qahhor. "Dahshat" hikoyasi).

Matndan ko‘rinadiki, uning tarkibida qo‘llangan go‘riston, sag‘ana, kafan, o‘lik, go‘r, zulmat, qop-qora so‘zlari hikoya personaji – Unsinning yuragidagi benihoya kuchli dahshatni ifodasi bilan birga, o‘quvchida ham qo‘rquv hislarini paydo qiladi. O‘quvchi go‘yoki Unsin bilan birga "qop-qora chinor ostidagi oqarishib turgan sag‘analarni, belgisiz zulmatni" ko‘rgandek "yuragi uvishadi" O‘zbek tili kabi ingliz tilidagi badiiy adabiyotlarda ham o‘quvchi psixologiyasiga kuchliroq kirib borish, ham tasvirlanayotgan holatni o‘quvchi ongiga chuqurroq kiritish uchun assotsiativ so‘zlardan foydalaniladi. Buning bir namunasi sifatida Jane Austenning "Pride and Prejudice" asaridan olingan parcha orqali kuzatishimiz mumkin:

*When Jane and Elizabeth were alone, the former, who had been cautious in her praise of Mr. Bingley before, expressed to her sister just how very much she admired him. "He is just what a young man ought to be," said she, "sensible, good-humoured, lively; and I never saw such happy manners! so much ease, with such perfect good breeding!" "He is also handsome," replied Elizabeth, "which a young man ought likewise to be, if he possibly can. His character is thereby complete." "I was very much flattered by his asking me to dance a second time. I did not expect such a compliment"[3].*

Ushbu matndan ko‘rishimiz mumkinki, uning tarkibida qo‘llanilgan: sensible-aqli; good-humoured – xushchaqchaq; lively – jo‘shqin, chaqqon; happy manners – ajoyib xulq-atvorli; perfect good breeding – mukammal tarbiyalangan; handsome – kelishgan; kabi so‘zlari orqali hikoya personajining har tomonlama mukammal inson ekanligini o‘quvchi ongida gavdallantiradi. O‘quvchi bu parchada suhbat qilayotgan ikki qiz bilan birgalikda shunday hislatlarga ega bo‘lgan inson bilan uchrashganday his qiladi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, psixolingvistikada so‘zning roli beqiyosdir chunki o‘rnida, kerakli joyda ishlatilgan so‘z har bir inson ongiga yetib borishi va yoritib berilayotgan hodisalarni bevosita inson his qilishini ta‘minlaydi. Badiiy adabiyotlardagi inson psixologiyasiga ta‘sirni kuchaytirish ham bir-biriga munosib tushadigan so‘zlar orqali yuzaga kelar ekan.

E.S. Kubryakovaning quyidagi fikrlarini bu kabi hodisalarning nazariy talqini desak ham bo‘ladi: "Dastlab inson miyasiga real voqelikdan muayyan belgilarni assotsialagan holatda qabul qilingan lisoniy ma‘nolar keyinchalik inson psixikasi va intellektida ideal mohiyat – konseptlar sifatida yangi hayotni boshlashi mumkin, bunda ular o‘z so‘zlik qobig‘idan qisman ozod bo‘lishi mumkin"[4].

**Xulosa va takliflar.** Psixologik tushunchalar til aloqasining shaxs va xalqqa bog‘liqligini, shuningdek, tilning tarixiy-madaniy faktor ekanligini ifoda etadi. Bu konsepsiya turli xil individual-leksik birliklarning paydo bo‘lish omillarini, ijtimoiy-grammatik assotsiatsiyasining esa uzviy aloqadorligini anglatadi. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi va XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, til va nutq

muammosiga doir tilning funksional (vazifaviy) belgilarini, shuningdek, til qurilishini va nutqiy-ijodiy yondashuvni o‘rgangan.

Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi ham markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. “Lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo‘lgan ichki jarayondir”[5]. U, xususan, muloqotning eng oliy birligi bo‘lgan matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Umurov Hotam. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – Toshkent: Fan, 1983. – 292 b.
2. Богословский В.Н. Зарубежная литература. – Москва, “Просвещение”, 1975.
3. Фрейд З. Введение в психоанализ. – Москва, Наука, 1991.
4. Лондон Д. Мартин Иден. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968.
5. Андреева М. А История литературы конца XIX и начала XX веков. – Москва: Высшая школа, 1978.



**REKLAMA MATNLARIDA DEYKTIK  
BIRLIKLARNING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**



**DILNOZA MAMIROVA**

*Samarqand davlat chet tillar instituti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,  
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adresant-adresat munosabati va ularning munosabatida deyxsisning o‘rni haqida ayrim mulohazalar keltirilgan. Bu mulohazalar reklama matnlari doirasida yoritishga harakat qilindi (manbaa O‘zbekiston telekanallaridagi reklamalar).

**Kalit so‘zlar:** adresant, adresat, deyxsis, deyktik iboralar, segment qurilma.

**Аннотация.** В этой статье представлены некоторые соображения об отношениях адресат-адресат и роли дейксиса в их отношениях. Эти рассуждения пытались осветить в рамках рекламных текстов (источник-реклама на телеканалах Узбекистана).

**Ключевые слова:** адресант, адресат, дейксис, дейктические выражения, сегментное устройство.

**Annotation.** This article presents some considerations about the addressee-addressee relationship and the role of deixis in their relationship. They tried to highlight these arguments within the framework of advertising texts (the source is advertising on Uzbek TV channels).

**Keywords:** addressee, addressee, deixis, deictic expressions, segmental device.

**Kirish.** Sotsiolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq kommunikantlarining millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilariga qarab ixtisoslashadi. Bulardan tashqari, so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi aloqaning kontakt-distantligiga ko‘ra ham ixtisoslashadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ma’lumki, har qanday muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv, ya’ni tarkibiy qismlar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bunda so‘zlovchi – adresant-kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat-kommunikant deb yuritiladi va bular muloqotda bevosita ishtirok etuvchilardir [1;41-42]. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, reklamada adresat – reklama matni bilan tanishuvchi shaxs, o‘quvchi. Retsipiyent termini ham aynan shu ma’noda qo‘llaniladi. Adresant – reklama matnini tayyorlovchi va tarqatuvchi subyekt.

Mashhur reklamachi D.Ogilvi adresantlarga murojaat qilib, shunday degan edi: “Agar siz odamlarni biror narsaga ishonirish yoki xarid qilishga ko‘ndirmoqchi bo‘lsangiz, ularning tilida gapirishingiz kerak bo‘ladi”[2;28].

Haqiqatan ham, reklamada sotishning uddasidan chiqish uchun adresant ma'lum stilistik eshitish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bilamizki, yozuvchi o'ziga xos yagona va betakror uslubiga ega bo'lish huquqiga ega. Adresant esa bunday huquqqa ega emas. U faqat qaysi kasb to'g'ri kelsa, tadbirkorlikmi, dehqonmi, shifokormi, uy bekasimi va shunga o'xshash shaxslar tilini bilishi shart. Bu haqda mashhur, dunyo tanigan shaxslardan biri Rezerford shunday degan edi:

“Agar siz farroshingizga nima bilan shug'ullanayotganingizni tushuntira olmasangiz – siz hech narsaga arzimaydigan mutaxassissiz”. Demak, siz qilayotgan ishni hamma tushunishi uchun o'rtamiyonalashtiring, sohtalikdan qoching [3; 47].

Reklama tarixi shuni ko'rsatadiki, yaxshi sotuvchilardan yaxshi kopireyterlar chiqadi. Hammasi juda oddiy – yaxshi sotuvchi o'qishda ham, praktikada, ya'ni amaliyotda ham mijoz fikrini o'qiy oladi, unga nima kerakligini o'rganadi, xaridor tilida gapirishni biladi. Bu borada adresantga notiqlik san'ati yordam beradi. U xaridorga mahsulot haqidagi tushunchalarga ishora qiluvchi birliklardan unumli foydalanadi. Bu birliklardan biri tilshunoslikda “deyktik iboralar” deb ataladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** «Deyksis» so'zining asl yunoncha ma'nosi «ko'rsatish», «ishora» bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida «voqyelikka ishora, ko'rsatish» mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi»[4;154]. «Deyktik iboralar kommunikativ hodisa-uzatilayotgan axborotning ma'lum qismlarini alohida ta'kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qiladi»[4;154].

Til tizimi markazida deyksis voqyelikni ekstralingvistik (pragmatik aspektda) va lingvistik (ifodaning aniq lisoniy vositasi) omillar asosida ko'rsatuvchi hodisa sifatida turadi [5;8]. Shunga ko'ra deyksisni yuzaga chiqaruvchi vositalarni ikki turga bo'lish mumkin: lingvistik va ekstralingvistik vositalar. Buni misollar orqali ko'rib chiqamiz: Ko'pchilikka deraza harid qilishda hyech qanday maslahat va tavsiya berilmaydi, ularga faqat hammasi yaxshi bo'lishini aytishadi xolos. Eh imzo bilan hammasi boshqacha! O'rnatishdan oldin maslahat, professional o'lchov va montaj, shuningdek sifat kafolati. Imzo – oqilona tanlov.

Ooo yo'q, shamollash. Homilado yoki yosh bolalar uchun qanday davolanishni tanlash kerak? Nazaferon – yaqinlaringizni himoya qiling.

Ushbu misoldagi reklama matni lingvistik jihatdan kerakli so'zlar tanlanib, to'g'ri tuzilgan bo'lsa-da, gapda ekstralingvistik vosita sifatida eh his-hayajon undovi ishlatilayapti. Bu esa ushbu mahsulotni xarid qilmagan xaridorga ham afsus va imzoni olganda hammasi yaxshi bo'lishi mumkinligini bildirib turibdi.

Ikkinchi misoldagi o undovi norozilik kayfiyatini ko'rsatish uchun kiritilgan bo'lib, bu jarayonni to'g'irlash uchun Nazaferon – unga havola tarzida deyktik birlik sifati yaqinlaringizni himoya qiling jumlasini kiritilgan.

Deyksis haqida monografik tadqiqot olib borgan N.A.Srebryanskaya, deyksis ishora qilar ekan, haqli ravishda nimaga ishora qiladi, degan savol tug'iladi deydi hamda ushbu savolga javob tariqasida Ch.Filmorning «deyksis – bu so'zlovchi shaxsi va adresatga, fikr aytilayotgan makon va zamonga ishora» degan fikrini keltiradi»[5;8].

Masalan, biror marta foydalanib ko'rmagan mahsulotga nisbatan «Bu nima?»

savoli bilan adresantga murojaat qilinganda, deyktik ibora («bu») vositasida shu muhitda mavjud bo‘lgan narsa- predmetga ishoradir.

Segment qurilmali gaplarda deyxis har doim tinglovchiga – adresatga yoki so‘zlovchi nazarda tutgan predmet, voqyelikka ishora qiladi.

Segment qurilmalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyat u bilan aloqalangan gap tarkibida kishilik hamda ko‘rsatish olmoshlarining kelishi bo‘lib, asosiy gap tarkibidagi deyxis turli predmet, shaxs, hodisalarga ishora qilishi mumkin:

Qarang anavilar fantaga c vitaminini qo‘shishibdi, Gapirganning hojati yo‘q, natijasini ko‘ring. Ta‘miga gap yo‘q, tinch o‘tirgan yo‘q, kun bo‘yi g‘ayrat qaynoq, xush kayfiyat ta‘mi bu, quvonch va zavq ta‘mi bu, olamga sho‘ng‘i, ilhomni zabt et,c vitaminli yangi fanta. Do‘stlar biz c vitamini bilan butun kuch-g‘ayratga to‘ldik, lazzati zo‘r, birga shodonlashaylik. Keling fanta ochaylik.

Bu reklama misolida Qarang anavilar fantaga c vitaminini qo‘shishibdi jumlasini aytilgandan keyin, adresantda anavilar kimlar?, fanta ichimligiga qo‘shilsa nima bo‘libdi? kabi savollar tug‘ilishi tabiiy. Shuning uchun adresat bu mahsulotga c vitamini qo‘shilganda nima bo‘lish holatini she‘riy tarzda tinglovchiga yetkazib beradi. Maqsad esa tinglovchini xaridorga aylantirish.

Professor Sh.Safarov “Pragmalingvistika” kitobining VII-bobini “Deyxis va nutqiy muloqot matni yoxud matnda mazmunning ifoda topishi” deb nomlagan bo‘lib, unda quyidagilarni keltiradi:

“Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalarining muhimligini unutmaslik kerak. Har bir voqyea ma‘lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo‘lganligini bilishga intiladi. Bundan tashqari, axborotning to‘liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma‘lum shaxs (shaxslar) tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekt haqidagi ma‘lumot ham talab qilinadi. Demak, «qachon» va «qayerda» savollari «kim» savolining hamrohligida nutqiy tuzilma mundarijasini belgilaydi. Ideal lisoniy faoliyat nutqiy tuzilmalar tarkibida aynan shu savollarga javob beruvchi birliklarning to‘liq tartibda mavjud bo‘lishini taqozo etadi”[4;164].

Reklama matnlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, haqiqatdan ham agar matn to‘liq bo‘lmasa, tinglovchiga bir ko‘rish yoki eshitishda ma‘lum bo‘lmaydi. Masalan, quyidagi reklamada:Uy manzilingizni yoki ish joyingizni so‘rashganida, masalan, shaxsiy ofisingizni, shaxsiy klinikangizning, yoki do‘koningiz qayerdaligini so‘rashganida siz endi o‘z manzilingizni aytishingiz shart emas. Endi manzilingizni so‘raganlarga beradigan javobingiz aniq deyiladi va ko‘rsatkich barmoq bilan eng baland bino ko‘rsatiladi. Buni bilish uchun tinglovchi binoni qanday qurilganligini va qayerlardan ham ko‘rish mumkinligini bilishi kerak bo‘ladi. Albatta, bu reklamani biz ma‘lum ijtimoiy qatlama mos deyishimiz mumkin. Chunki iqtisodchi adresant - tinglovchilarga tezkor ta‘sir o‘tkazish uchun, muloqot strategiyasini saqlagan holda, uning ijrosini ta‘minlovchi turli vositalardan foydalanishga harakat qiladi, lisoniy faoliyat amallari shakllarini o‘zgartirib turadi. Xohlasa imo-ishoralar bilan yoki so‘zlar bilan ifodalashi mumkin, ammo reklama matni butun ommaga qaratilar ekan u aniq, o‘ziga jalb qiladigan va tushunarli matnlardan iborat bo‘lishi lozim. Lekin keyingi vaqtlarda ataylab odamlarni o‘ylashga majbur qiladigan va shu bilan mahsulotni nomini

tinglovchining tilida ancha vaqt saqlab turishga qaratilgan reklamalar ham borligini bilamiz. Chunki insonlarning ko'pchiligi tushunmagan narsasini bilishga qiziqadi. Deytik iboralar ana shu tushunilmagan jihatlarni ochishga yordam beradi.

Deyksis tilda o'ziga xos semantik maydon hosil qilib, uning markazida nutq ijodkori, ya'ni so'zlovchining o'zi turadi. «Deyksis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan gapirganda, deyksis diskurs darajasida o'rganilishi kerak hamda «havolaning maxsus holati» sifatida e'tirof etilishi mumkin»[6;17]. Tadqiqotchining bu fikrlarining isboti sifatida biz quyidagi reklama matnini keltirishimiz mumkin:

Ovqatlanish paytidagi quvonch hissi undan keyingi og'irlik, noqulaylik, qorinning dam bo'lishi sababli yo'qoladi. Bundan qanday xolos bo'lish mumkin. Kreonni qo'llab ko'ring kreon yuzlab fermentli minimikrosferalardan iborat bo'lib, ular atigi 15 daqiqada ta'sir ko'rsata boshlaydi va hazm qilishni yaxshilaydi. Kreon hazm qilish muammolarining tezkor davosi.

**Xulosa va takliflar.** Bu reklamada Ovqatlanish paytidagi quvonch hissi undan keyingi og'irlik, noqulaylik, qorinning dam bo'lishi sababli yo'qoladi. Bundan qanday xolos bo'lish mumkin-segment bo'lak, havola, ya'ni deytik birlik sifatida Kreonni qo'llab ko'ring kreon yuzlab fermentli minimikrosferalardan iborat bo'lib, ular atigi 15 daqiqada ta'sir ko'rsata boshlaydi va hazm qilishni yaxshilaydi. Kreon hazm qilish muammolarining tezkor davosi kabilarni olish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, deyksislar fikrni oydinlashtirish va amalga oshirish jarayonida faol munosabatlarda bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Aliqulov Z., Boymirzayeva S. Sotsiolingvistika. – Samarqand: SamDU, 2010. 41-42-b.
2. Огилви Д. Тайны рекламного двора. 2009. – 145 с. www.koob.ru.
3. Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – Москва, 1981. – 104 с.
4. Сафаров. Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б .154
5. Сребрянская Н.А. Дейксис и его проекции в художественном тексте. – Воронеж, 2005. – С. 8.
6. Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2008. – 155 б.



## NUTQIY SO‘Z BIRIKMALARI VA ULARNING TAVSIFIGA DOIR



**JAVLON IBRAGIMOV**

*Abdulla Oripov ijod maktabi o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Uzoq vaqt tilshunos olimlar so‘z birikmasining til yoki nutq birligi ekanligi haqida munozara qilib keldilar. Til va nutq ziddiyati asosida yondashuv natijasida so‘z birikmasi qoliplari lisoniy, bu qoliplardan hosil bo‘lgan so‘z birikmalari nutqiy hodisa sifatda baholandi. So‘z birikmasining “birikma” tarzida qo‘llanishi nutqdagi tejam bilan bog‘liq bo‘lib, qisqa nutq talabidan kelib chiqqanligi shubhasiz.

**Kalit so‘zlar:** sintaktik pozitsiya, tobe so‘z, hokim so‘z, birikma, aloqa, shakliy omil, ma’noviy omil, otlı birikma, fe’lli birikma.

**Аннотация.** Долгое время лингвисты спорили о том, является ли словосочетания единитсей языка или речи. В результате подхода, основанного на конфликте языка и речи, образсы словосочетаний отсенивалис как лингвистические, а словосочетания, образованные из этих образсов, качественно отсенивалис как речевые явления. Употребление словосочетания в форме «сочетание» связано с экономией в речи и, несомненно, обусловлено требованием краткости речи.

**Ключевые слова и выражения:** синтаксическая позитсия, придаточное слово, управляющее слово, сочетание, связ, формальный фактор, семантический фактор, существительное словосочетание, глагольное словосочетание.

**Annotation.** For a long time, linguists have been arguing about whether phrases are a unit of language or speech. As a result of the approach based on the conflict of language and speech, phrase samples were evaluated as linguistic, and word combinations formed from these samples were qualitatively evaluated as speech phenomena. The use of the phrase in the form "combination" is associated with economy in speech and, undoubtedly, due to the requirement of brevity of speech.

**Keywords:** syntactic position, subordinate word, control word, combination, connection, formal factor, semantic factor, noun phrase, verb phrase

**Kirish.** Uzoq vaqt tilshunos olimlar so‘z birikmasining til yoki nutq birligi ekanligi haqida munozara qilib keldilar. Til va nutq ziddiyati asosida yondashuv natijasida so‘z birikmasi qoliplari lisoniy, bu qoliplardan hosil bo‘lgan so‘z birikmalari nutqiy hodisa sifatda baholandi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek tilshunosligida sintaksisning muhim ob’ekti sifatida so‘z birikmasi nazariy jihatdan an’anaviy tilshunoslikda ham (A.G‘ulomov, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov, F.Abdullayev, Sh.Rahmatullayev), struktural tilshunoslikda ham (N.Mahmudov, H.Ne’matov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova,

B.Mengliyev, M.Abuzalova, Sh.Akramov, R.Bobokalonov, S.Nazarova, L.Raupova, B.Yorov) atroflicha tadqiq qilingan. “Darhaqiqat, valentlik va so‘z birikmasi o‘zaro mohiyat va hodisa munosabatidir. Mohiyat umumiy, hodisa esa uning aniq ko‘rinishlari sanaladi. Valentlik abstrakt tafakkur sathida (mohiyat), so‘z birikmasi esa jonli kuzatish sathida (hodisa) mavjuddir. So‘zlarning ma‘lum til me‘eriga xos bog‘lanish modeli til birligi, bu modelning leksik birliklar bilan to‘ldirilishi, aniq reallashuvi, hodisalarda namoyon bo‘lishi nutq birligi hisoblanadi. Demak, til va nutq zidligi so‘z birikmalariga ham xosdir” [1; 5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola mazmunini yoritishda tavsiflash, leksik-semantik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** So‘z birikmasi tahliliga o‘tishdan avval bu atamaning tilshunoslikda qo‘llanish darajasiga e‘tiborni qaratish muhim. “Hozirgi zamon tilshunosligida «birikma» va «so‘z birikmasi» terminlari va bu terminlar bilan bog‘liq tushunchalar ko‘pincha bir-biridan farqlanmaydi, bir-biriga aralashtirib qo‘llaniladi yoki bir-biridan etarli darajada chegaralanmaydi<sup>3</sup>. So‘z birikmasining “birikma” tarzida qo‘llanishi nutqdagi tejam bilan bog‘liq bo‘lib, qisqa nutq talabidan kelib chiqqanligi shubhasiz.

Demak, ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir murakkab tushuncha (predmet, harakat, holat, belgi tushunchasi) anglatadigan erkin birikmalar so‘z birikmalari deyiladi. Ba‘zi olimlar birikmalar tugal fikr ifodalaganligi uchun ularni “ochiq konstruksiyalar” [2; 5] sifatida ta‘riflaydilar (fikr tugal bo‘lishi uchun u davom ettirilishi va shakllangan kesim bilan birikishi lozim).

So‘z birikmasi, qayd etilganidek, garchi bu bo‘limning asosi gap haqidagi ta‘limot sanalsa-da, sintaksis (gr. syntaxis - tuzish, qurish) bo‘limi tadqiq ob‘ekti sanaladi. Gaplar so‘zlarning erkin birikuvlariga ham asoslanadi (so‘z-gap kabi birgina kesimdan iborat gaplar bundan mustasno). Shunga asosan so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatlari, so‘z birikmalari xam sintaksisda o‘rganiladi. “Atom xususiyatlari va ularning birikish qonuniyatlarini ochish molekula tabiatini o‘rganishga bo‘ysundirilganligi kabi so‘z birikmalarini o‘rganish ham gap ta‘limotining tarkibiy qismi bo‘lib, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas” [3; 5]. Shu sababli nutqiy so‘z birikmasi va uning lisoniy sathdagi qolipini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nutqiy so‘z birikmasiga manbalarda turli xil shaklda ta‘rif berilsa-da, ularning mazmunida mushtaraklik mavjud. Masalan, “Birdan ortiq mustaqil so‘zning ma‘no va grammatik jihatdan tobe bog‘lanishi so‘z birikmasi deyiladi: *maktabga borish, daftarning varag‘i* kabi” [4; 180]. Demak, nutqiy so‘z birikmalarida quyidagi jihatlarni ajratish mumkin: 1) kamida ikki mustaqil so‘zdan tuziladi; 2) birikayotgan so‘zlar ma‘no va grammatik jihatdan mos bo‘ladi; 3) a‘zolar orasida hokim-tobelik munosabati bo‘lishi lozim; 4) tushuncha anglatishi lozim.

So‘z birikmasi mazkur jihatlarning ba‘zilari mavjud bo‘lgan boshqa nutqiy birliklardan farqlanadi. Masalan, so‘z ham tushuncha ifodalaydi, lekin so‘z birikmasi birdan ortiq so‘zning birikuvidan (bunda har bir so‘z alohida so‘roqqa javob bo‘la oladi) tuzilishi bilan undan farqlanadi. Shu bilan birgalikda so‘z anglatgan tushunchaga nisbatan so‘z birikmasi anglatgan tushuncha farqli. So‘z birikmasi anglatgan tushuncha so‘z nikiga qaraganda aniqroq, muayyanroq. Buni *kitob* so‘zi va *badiiy kitob* birikmasi ma‘nolaridagi

farqda ham ko‘rishimiz mumkin. Demak, so‘z birikmasi so‘zga nisbatan shaklan keng bo‘lsa-da, mazmunan torroq hisoblanadi.

Birdan ortiq ma‘no va grammatik jihatdan mos mustaqil so‘zlarning hokim-tobe munosabatda birikishi bilan gap ham so‘z birikmasiga o‘xshash, lekin so‘z birikmasi tushuncha anglatishi bilan fikr anglatuvchi gapdan farqlanadi. Ya‘ni gap predikativ (shakllangan kesimga ega) birikma hisoblansa, so‘z birikmasi predikativ bo‘lmagan birikma hisoblanadi. Birdan ortiq mustaqil so‘zdan tuzilishi bilan so‘z tizmasi (aka va uka, amma va xola kabi birikuvlar) ham so‘z birikmasiga o‘xshash, ammo qismlari orasida teng aloqa ularning farqlanishi uchun asos bo‘ladi. Fikr dalilini “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisida” A.Ahmedov tomonidan yozilgan quyidagi so‘zlarda ko‘rishimiz mumkin: “Shunday qilib, gap bilan so‘z birikmasi o‘zaro predikativ va nopredikativ birliklar sifatida farq qiladi. So‘z birikmasi kam deganda, ikki mustaqil so‘zning nopredikativ birikuvidan hosil bo‘ladigan sintaktik birlikdir” [5; 17].

So‘z birikmasi, shuningdek, birdan ortiq mustaqil so‘zlardan tuziladigan va tushuncha anglatadigan iboralarga ham shakliy tomondan o‘xshash. Biroq iborani hosil qiluvchi so‘zlar orasida sintaktik aloqa so‘ngan, bu so‘zlar o‘zaro yaxlitlangan, kishilar xotirasida tayyor saqlanish belgisi bilan lisoniy birliklar qatoridan joy olgan. Iboralar shaklan so‘z birikmasiga o‘xshasa-da, mohiyatiga ko‘ra leksemalarga yaqinlashadi. Zero, *kapalagi uchib ketmoq* iborasi bilan *qo‘rqmoq* so‘zining ma‘noviy mohiyati yaqindir. Iboralar xuddi leksemalar kabi yaxlit, “buzilmagan” holda til sohiblarining keyingi avlodiga o‘tadi. So‘z birikmasi esa vaqtinchalik, nutq jarayonida tuziladigan birlikdir. Shu bilan birga so‘z birikmasidagi so‘zlar o‘z mustaqil ma‘nolarini saqlagan bo‘lsa, iborani hosil qiluvchi so‘zlar o‘z ma‘nosidan uzoqlashgan va umumiy iboraviy ma‘no ifodalashda xizmat qiladi.

Umuman olganda, hozirga qadar turg‘un so‘z birikmalari talqini bobida tilshunoslar fikrlarining mushtarak emasligini ko‘ramiz. Ana shu bois frazeologik birikmalar tavsifida, ular tarkibiga qay holatdagi turg‘un birikmalar kiritilishi lozimligi haqida biror qat‘iy fikr aytilgani yo‘q.

Frazeologiya bobida aytilayotgan fikrlar hamon chalkash va munozarali ekanligini uzoq vaqt n maqol va hikmatli so‘zlar, parafrazalar, sof turg‘un birikmalar, turli xil semantik vazifalarga ega ekanligidan qat‘i nazar, bir xil nom bilan – frazeologik birikma nomi bilan talqin etilib kelinganligida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu holat mustaqillik yillariga qadar o‘zbek tili grammatikasiga rus tili grammatikasidagi tadqiqotlar asos qilib olinganligi bilan izohlanadi. Zero rus tilshunosligida ham frazeologiyada yuqorida sanalgan birikmalar haqida aniq to‘xtamga kelinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ba‘zi rus tadqiqotchilari esa maqol va hikmatli so‘zlarni nafaqat frazeologik tadqiqotlar, balki lingvistik tadqiqotlar doirasidan umuman olib tashlashni, ular til sistemasi sathida o‘z o‘rniga ega emasligini ta‘kidlaydi [6; 145]. O‘zbek tilshunosligida maqol, matal, ibora kabilar barqaror birikmalar sifatida tavsiflandi.

Qayd etilganidek, so‘z birikmasi tobe aloqa natijasida hosil bo‘ladi. Shu tufayli so‘z birikmasi tobe (ergash) hamda hokim (bosh) so‘zdan tuziladi deyishimiz mumkin. Tobe so‘z hokim so‘zning ma‘nosini aniqlashtiradi, ya‘ni ma‘nosi aniqlashayotgan so‘z hokim, hokim so‘zning ma‘nosini aniqlashtirayotgan so‘z tobe so‘z hisoblanadi. So‘z birikmasida hokim so‘z birdan ortiq tobe so‘zni ergashtirib kelishi mumkin. Lekin tobe

maqomdagi soʻzlar faqat bir soʻzgagina bevosita ergashadi. Masalan, *qiziqarli badiiy kitob* birikmasida *kitob* soʻzi ikkita soʻzga (*qiziqarli, badiiy*) nisbatan hokim. Bunda *kitob* soʻzi hokim valentligini, *qiziqarli, badiiy* soʻzlari tobe valentligini namoyon etgan. Baʼzi olimlar maʼnosi aniqlashayotgan soʻz hokim soʻz, uning maʼnosini aniqlashtirayotgan soʻz tobe soʻz hisoblanishi biroz gʻaliz deb hisoblaydilar. Bunda birikmada nafaqat hokim sanalayotgan soʻzning, balki tobe sanalayotgan soʻzning ham maʼnosi kengayishiga asoslaniladi. Zero, *qiziqarli kitob* birikuvida nafaqat *kitob* soʻzining, balki *qiziqarli* soʻzining ham maʼnosi aniqlashayotganligini (nima *qiziqarli* ekanligi *kitob* soʻzi yordamida aniqlashmoqda) inkor qilib boʻlmaydi. Shu sababli hokim va tobe aʼzolari belgilashda boshqa vositalarning (grammatik shakli, joylashishi) ham oʻrni muhim. Aloqa-munosabat shakllaridan kelishik, koʻmakchilar tobe soʻz tarkibida, egalik shakli hokim soʻz tarkibida qoʻllanadi. Oʻzbekcha matnlarda tobe soʻz avval, hokim soʻz keyin keladi. Baʼzan nutqda inversiya hodisasi kuzatilishi va shunda tobe soʻz hokim soʻzdan keyin kelishi mumkin. Tilshunoslar soʻz birikmasidagi hokim soʻzga “kengayuvchi”, tobe soʻzga “kengaytiruvchi” atamasini ham qoʻllaydilar. “Kengayuvchi va kengaytiruvchi atamaları nisbiy mohiyatga ega boʻlib, shaklga nisbatan aytilgandagina toʻgʻri boʻladi. Masalan: *kitobni oʻqimoq* birikmasida [*oʻqimoq*] leksemasi yoniga yana bir leksema qoʻshildi va bir soʻz ikkita boʻlib, shakliy “yoyilish”, yaʼni kengayish yuz berdi. Shakliy kengayish esa maʼnoviy torayishni vujudga keltiradi. Bunda shakl va mazmun dialektikasi yanada yaqqolroq namoyon boʻladi” [3; 33].

Soʻz birikmasidagi soʻzlar tobe aloqaning uch turi: boshqaruv, moslashuv va bitishuvlardan biri yordamida birikadi. **Boshqaruv** aloqasida hokim soʻzning talabi bilan tobe soʻzning maʼlum bir grammatik vositani (tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishiklari yoki koʻmakchilar) qabul qilishidir. Yaʼni, boshqaruv aloqasida tobe soʻz hokim soʻzga birikish uchun oʻzgaradi, shu sababli bu aloqa shakliy jihatdan bir tomonlama aloqa hisoblanadi. Qaysi vosita bilan amalga oshganligiga koʻra boshqaruv ikkiga ajratiladi: 1) kelishikli; 2) koʻmakchili. Baʼzi manbalarda ravishdosh va sifatdosh shakllari ham boshqaruv aloqasini hosil qilishi aytiladi [3; 35]. Ravishdosh va sifatdosh shakllarining soʻzlarni bogʻlashdagi ahamiyatini hisobga olganda bu fikrga qoʻshilish mumkin. **Moslashuv** aloqasida hokim va tobe soʻzlar egalik shakli va qaratqich kelishigi vositasida birikadi. Bunda egalik shakli hokim soʻzga qoʻshilsa, kelishik shakli tobe soʻzni shakllantiradi. Birikma hosil qilishda ham hokim soʻz, ham tobe soʻz shakllanganligi uchun moslashuv shakliy jihatdan ikki tomonlama aloqa hisoblanadi. Baʼzan moslashuvda yo kelishik shakli (*maktab oʻquvchisi*), yo egalik (*bizning uka*) shakli belgisiz qoʻllanishi mumkin. **Bitishuv** aloqasida birikma hosil qilayotgan soʻzlar morfologik koʻrsatkichlarsiz, ohang va tartib vositasida birikadi. Bunda oldin kelgan soʻz tobe, keyin kelgan soʻz hokim hisoblanadi. “Bitishuvda tobe soʻz ushbu mavqeda kelish uchun shakliy jihatdan oʻzgarmaydi. Zero, tobe aʼzo sifatida namoyon boʻlayotgan soʻz maʼnoviy va vazifaviy jihatdan bunga xoslangan boʻladi. Misollar: *qizil gul, oq qogʻoz*. Baʼzan ot turkumidagi soʻzlar ham hech qanday vositasiz tobe vazifada kela oladi: *oltin soat, tosh yoʻl* kabi. Bunda ular mohiyatan tobe aʼzolik doimiy belgisi boʻlgan sifat, son, ravish turkumlariga yaqinlashadi. Bu hodisa nutqiy boʻlib, *oltin, tosh* leksemalarining lisoniy mohiyatlari bilan belgilanmagan” [3; 34]. Boshqaruv va moslashuv aloqalarida morfologik koʻrsatkichlar mavjud boʻlganligi sababli aʼzolarining oʻrnini almashtirish

mumkin, bunda hokim-tobelik maqomi o‘zgaraydi. Bitishuv aloqasida esa tartibni o‘zgartirish hokim-tobelik maqomining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Ba‘zan birikmani hosil qiluvchi qismlar orasida aloqa “uzilsa”, qo‘shma so‘zlar hosil bo‘lishi mumkin. O‘zbek tili va boshqa ko‘pgina tillardagi tuzilishiga ko‘ra murakkab so‘zlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qo‘shma so‘zlarning asosiy qismi so‘z birikmalaridan yoki so‘z birikmalari qolipi asosida kelib chiqqan. Qo‘shma so‘zlarning paydo bo‘lishida so‘z birikmalari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Lekin hamma qo‘shma so‘zlar ham so‘z birikmalaridan kelib chiqqan yoki so‘z birikmasi qolipi asosida tuzilgan deb qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi. “O‘zbek tilida qator qo‘shma so‘zlar mavjudki, ularni so‘z birikmalaridan kelib chiqqan yoki qadimgi so‘z birikmalari qolipi asosida tuzilgan deb bo‘lmaydi. Masalan: toshbo‘ron, Toshtemir, Tursunali, Haydarali, tilxat, Samarqandqishloq, qorxat, qo‘lbola, piyozdog‘, Oygul, temirbeton, hadeb, qoryog‘di (marosim nomi), Soykeldi, bag‘ritosh, Qumbosdi, go‘shtkuydi, xumorbosdi, mehmonbosdi, yoriltosh, urto‘qmoq, urkaltak, ochilqamchi, qaynarxumcha, ochildasturxon va h. k. Bu qo‘shma so‘zlarning ayrimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zak negizlarni qo‘shishdai, ayrimlari juft so‘zlardan (temirbeton kabi), ayrimlari ega va kesim munosabatidan — gapdan, ayrimlari ega, kesim va updalmadan kelib chiqqandir. Kesim — undalmadan kelib chiqqan yoki chamandagul kabi qo‘shma so‘zlarda ularning komponentlari o‘rtasida so‘z birikmalariga xos grammatik aloqa yo‘q” [7; 35].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, so‘z birikmalari lisoniy sintaktik qolipning (LSQ) nutqiy voqelanishi bo‘lib, qismlar orasidagi tobe aloqaning turiga ko‘ra – boshqaruvli, moslashuvli, bitishuvli; hokim so‘zning ifodalanishiga ko‘ra – ismli, fe‘lli; tobe so‘zning sintaktik vazifasiga ko‘ra – aniqlovchili, to‘ldiruvchili, holli; birikmani hosil qiluvchi a‘zolar soniga ko‘ra – sodda va murakkab kabi turlarga bo‘linadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н., Нурмонов А., “Ўзбек тилининг назарий грамматикаси”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995.
2. Абдурахмонов Ғ., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж., “Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1979.
3. Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б., “Ўзбек тилининг структурал синтаксиси”, ўқув қўлланма, Тошкент, 2004.
4. Они тили. Қомус. Тошкент, 2009.
5. Аҳмедов А. Синтактик бирликлар таркиби//Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент,1992.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. -Л., 1963.
7. Шарипов М.К. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикmalari синтаксиси масалалри, Тошкент, “Фан”, 1978.



## TOG'AY MUROD QISSALARIDAGI AYRIM LINGVOKULTUREMALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI



**GULHAYO JO'RAYEVA**

*Navoiy davlat pedagogika instituti  
10.00.01 – O'zbek tili tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** XX asrning 90-yillarida tilshunoslikda paydo bo'lgan yangi lingvokulturologiya yo'nalishining o'rganish predmeti bo'lgan lingvokulturemalar (maqol, matal, ibora, metafora, o'xshatish, realiya, urf-odat va h.k) til va madaniyatni aks ettirishi bilan millat uchun muhim mavzuga aylandi. Ushbu maqola o'zbek yozuvchisi, qadriyatlar kuychisi Tog'ay Murodning qissalaridagi madaniyatni aks ettiruvchi til birliklaridan bo'lgan ayrim maqollarning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** paremiologiya, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, struktur-semantik tilshunoslik, obraz, idioma, maqol, matal, antroposentrik paradigma, nutq madaniyati, madaniyat tarixi, mubolag'a, assotsatsiya.

**Аннотация.** Лингвокультурные темы (поговорка, поговорка, словосочетание, метафора, сравнение, реальность, традиция и др.), являющиеся предметом изучения нового направления лингвокультурологии, появившегося в лингвистике в 90-е годы XX века.к) стал важной темой для нации, поскольку он отражает язык и культуру. Эта статья посвящена лингвокультурологическому исследованию некоторых пословиц из языковых единиц, отражающих культуру, в рассказах узбекского писателя, ценителя ценностей Тогая Мурада.

**Ключевые слова:** паремология, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, психолингвистика, структурно-семантическая Лингвистика, образ, идиома, поговорка, поговорка, антропоцентрическая парадигма, культура речи, история культуры, преувеличение, ассоциация.

**Annotation.** Linguocultural topics (proverb, saying, phrase, metaphor, comparison, reality, tradition, etc.), which are the subject of the study of a new direction of linguoculturology, which appeared in linguistics in the 90s of the XX century.k) has become an important topic for the nation because it reflects the language and culture. This article is devoted to the linguistic and cultural study of some proverbs from linguistic units reflecting culture in the stories of Uzbek writer, connoisseur of values Togai Murad.

**Keywords:** paremiology, linguoculturology, cognitive linguistics, psycholinguistics, structural and semantic linguistics, image, idiom, proverb, saying, anthropocentric paradigm, speech culture, cultural history, exaggeration, association.

**Kirish.** Yangilanayotgan davr har bir soha kishilari, xususan, o‘zbek tilshunosligi uchun ham o‘ziga xos ma’lum talablarni qo‘ymoqda. Jahon tarixiy taraqqiyotidan ma’lumki, ma’naviy yuksak, ijodiy tafakkuri to‘g‘ri shakllangan shaxs har doim o‘z fikriga, jamiyat taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday ta’kidlab o‘tadilar: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatini safarbar etamiz”.

Jahon tilshunosligida XX asr oxiri XXI asr boshlarida antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘lib, tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratdi. “Inson koinot markazidir” degan g‘oyani ilgari suruvchi qarashga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, bu g‘oya, ayniqsa, O‘rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi. Xuddi shu davrda jahon tilshunosligida inson va tabiat o‘rasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning integrativ xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Lingvistika bilan boshqa fanlar oralig‘ida psixolingvistika, etnolingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, matematik lingvistika, biolingvistika singari oraliq fanlar paydo bo‘ldi. Ular qatorida shakllangan va qisqa fursatda o‘z ichiga minglab so‘z va tushunchalarni qamrab olgan shunday fanlardan birini lingvokulturologiya tashkil etadi.

Dunyo tilshunosligining yangi yo‘nalishi sifatida lingvokulturologiya o‘zining tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo‘ldi, kishilar ongida lingvokulturologik tushunchalar, lingvokulturologiyaga oid bilimlar va lingvokulturologik lug‘aviy qatlam sifatida u tilda o‘z o‘rni va nufuzini topdi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o‘zbek madaniyatining tilimizda aks etishi, yoki tilimizning madaniyatimizda aks etishi bu xalqimizning azaliy qadriyatlari va tilimiz jozibadorligini namoyon etuvchi qudratdir. Aynan lingvokulturologik tadqiqotlarning millatning o‘zligini tanishida, milliylikni asrab qolishida, qadriyatlarining qadr topishida, tilning e‘zozlanishi va boyitilishida ahamiyati katta. Millat madaniyati xalq jonli nutqida, milliy asarlarda o‘z aksini topadi. Milliy yozuvchimiz Tog‘ay Murodning barcha qissalari ana shunday adabiyotlardandir. Ushbu mavzuga murojaat qilishning zaruriyati shundaki, lingvokulturologik tadqiq qilish orqali til va madaniyat boyliklari kashf etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Lingvokulturologik masalalarning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlari xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovanning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasini belgilash mumkin.

Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyeksi masalalari o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida tilning lingvokulturologik xususiyatlari yuzasidan qilingan ishlar bir qancha bo‘lsa-da, badiiy asarning lingvokulturologik tahlillari hanuz dolzarb masalaligicha qolmoqda. Shu bois milliy mentalitetimizning nodir bilimdoni bo‘lgan Tog‘ay Murod qissalarini lingvokulturologik tahlilga tortish katta ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda metodikaning tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbek tilshunosligidagi so‘nggi yillar, ya‘ni milliy qadriyatlarining tiklanish davri so‘zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini chuqur egallashni; fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta‘sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrini asoslamoqchi yoki mustahkamlamoqchi bo‘lsa, albatta maqolga murojaat qiladi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab berolmaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, kesatish, yupatish, o‘git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma‘naviyati va h.k. bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan maqol va matallar o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

Tilshunoslikning ayrim o‘rinlarida maqol va idioma tushunchalari farqlanadi. Ma‘nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl ma‘nosiga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ko‘chma ma‘no beruvchi so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasi idiomalardir[3,26]. Idioma tuzilishiga ko‘ra so‘zdan ham, so‘z birikmasidan ham, gapdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Ma‘nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl ma‘nosiga bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar – so‘z idiomalardir: suyug‘oyoq (*“Boisi, elda Munavvar suyug‘oyoq ayol, demak gap oralab yurdi”* [4,82]). Tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga to‘g‘ri keluvchi idiomalar tarkibiga frazeologik birliklarning katta qismi mansub: boshini aylantirmoq (*“Hali o‘g‘lingizning boshini shunday aylantirayin-shunday aylantirayin...”*[4,73]; qo‘lini halollamoq (*“Shoymardon ferma mudir o‘g‘li qo‘lini halolladi. To‘shakda yotmish o‘g‘il ko‘nmadi. Yuzini goh o‘ng tarafga, goh chap tarafga burib yig‘ladi”*[4, 128]). Ichki tuzilishi gapga teng bo‘lgan iboralar va barcha maqollar uchinchi turga – gap idioma guruhiga kiradi: uyidan ilon chiqmoq (*“– Uyimizdan ilon chiqqanmi? – piching qildi otasi”*[4,5]); Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi (*“Shunda nima degan odam bo‘ladi? Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi”*[4,48]). Mana shu uchinchi nuqtada ibora va maqol birlashadi, ammo ular orasida ko‘plab farqlar mavjud.

Individual holat haqida aytilgan gapning maqolga aylana borishi hodisasini “Oydinga yurgan odamlar” asarida qo‘llangan *“Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidaydi”*[4,19] maqolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu maqol asarda o‘zbek xalqining go‘zal urf-odatlaridan bo‘lmish nikoh o‘qish uchun kelindan rizolik so‘ralishi, kelin esa ibo qilib, sukut saqlashi, bundan vaqt cho‘zilib kuyov bolaning ko‘ngli g‘ashlanishi manzarasida Tog‘ay Murod tomonidan g‘oyat mahorat bilan o‘z o‘rnida qo‘llangan.

Ushbu maqol rivoyatlar asosida shakllangan maqollar toifasiga kiradi. O‘tmishda podsholar, xon-u beklar gunohkor odamga ta‘zir bermoqchi bo‘lganlarida shariat peshvolarining fatvosiga binoan, uni 40 darra urdirardilar. Xalq rivoyatlaridan birida aytilishicha: “Bir odamga bo‘hton qilib, bo‘yniga gunoh qo‘yib, 40 darra urishga mahkum etadilar. U “tishini tishiga qo‘yib”, g‘ing demay, dod-faryod qilmay, 40 darrani ichida sanab turadi. Ammo darrachi hisobdan yanglishib, unga bir darrani ortiq urib yuboradi. Shunda u odam “dod!” deb yuboradi. Jazolash jarayonini tomosha qilib turgan xon: “Nega dod deysan?! Nima, xon hukmiga qarshimisan?!” deb o‘shqiradi. “Qarshi emasman-u, taqsir, ammo darrachingiz bitta ortiq urib yubordi-da”, - deysi shunda “gunohkor”. “Axir qirqiga chidaganingdan keying, qirq biriga ham chida-da!” deydi xon...”[7, 491].

Bu gap dastlab matal bo‘lib, keyinchalik maqolga aylanib qolgan. Odatda, maqolni dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanoq ravshan ifodalab berishga qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, yagona bir holatga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga, ya‘ni jamoat tasdig‘iqa qarab, asta-sekin keng umumlashma ma‘noga ega bo‘la boshlaydi.

Yuqoridagi matal ham shunday etimologik jarayonni boshidan o‘tkazgan bo‘lib, uni majozan qiyinchiliklarga chidamli, bardoshli, sabr matonatli bo‘lishga da‘vat etganda, bir nimadan qiynalib, iztirob chekayotgan odamni yupatib, unga dalda va tasalli berganda qo‘llaymiz. Tadqiq etilayotgan mazkur asarda ushbu maqolning “*Bir qishning bir yozi bo‘ladi, Qarg‘aning qag‘illagani qoladi*”, “*Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘*” kabi sinonimlari ham qo‘llangan[4, 112]. Bu maqollarning barchasi tushkunlikka, umidsizlikka tushib qolgan kishiga yo‘qlikda, muhtojlikda, xor-u zorlikda o‘tgan yomon kunlarning o‘tib ketishi, yaxshi kunlarning yetib kelishi haqida xushxabar, tasalli berish uchundir. Bunday vaqtda inson faqat sabr qilishi, chidamli, qanoatli bo‘lishi, sabrsizlikning yomon oqibatlariga olib kelishini unutmazligi, yaxshi kunlarga bo‘lgan umididan aslo voz kechmasligi kerak. Yozuvchi ham sabr-sinoatlar kaliti ekanini ta‘kidlab, asarning bir o‘rnida sabr haqida ikki maqolni keltiradi: “ - Eshitingmi, momosi, Vaxshivorda birov yetmishida farzand ko‘ribdi. Yana tag‘in, o‘g‘il emish! Ana ko‘rdingmi, erta-kechi bo‘lmaydi. *Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitadi. Sabr tagi sariq oltin, momosi*”[4,170].

Ko‘rinadiki, maqollar va hikmatli so‘zlar xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba asosida to‘plagan ma‘naviy meros hisoblanadi. Ularda ota-bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni, kechirgan turmushlarini, shodliklarini va chekkan azob, uqubatlarini, teran mazmunli pand-nasihati va o‘gitlarini, ma‘naviy boyligimiz hisoblangan rasm-rusum, urf-odat va an‘analarni ko‘ramiz. Erkin Vohidov so‘zlari bilan aytganda, odamlar boshqalarni o‘ylab buloq ko‘zini ochadilar, daraxt ekadilar, boshqalar yiqilmasin deb, o‘zlari tushib ketgan chuqurni tekislab yo tayoq suyab qo‘yadilar. Mendan keyin kelgan avlod tashnalik azobini ko‘rmasinlar, ochlikdan, oftob tig‘idan qiynalmasinlar, men yiqilgan chuqurlarga ular ham yiqilmasinlar, deya shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o‘sha buloq, ana o‘sha daraxt, ana o‘sha tayoqdir. ...Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun

asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir[7, 5].

Darhaqiqat, maqol va matallarda xalqimizning asriy kechmishlari, qadriyatlarimiz durdonalari namoyon bo‘ladi. Ota-bobolarimiz azal-azaldan nikoh masalasiga jiddiy qaragan. Ikki yoshning oilasi, nasl-nasabi, salomatligi, odob-axloqi qurilajak oilaning poydevorini tashkil etadi. Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur farzandlari va nevaralariga umr yo‘ldoshi talashda o‘ta e‘tiborli bo‘lganligini ularning salomatligi va nasl-nasabini puxta tekshirganidan bilamiz. Xuddi shu an‘ana *Aslini bilmay so‘z demaslar, Naslini bilmay qiz bermaslar*[4,11] matalida o‘z ifodasini topgan.

Insonning boshiga yozuvchi aytgan baxt qushi bir marta qo‘nadi. Dono xalqimiz yaxshi oiladan, nasl-nasabi pokiza, sog‘lom kishi boshqa xonadon farzandini so‘rasa, yaxshi ishni ishni orqaga surmaslikni, hatto tengi chiqsa, tekin berish kerakligini nazarda tutib, *chiroyi borida, chinorini topish kerakligini* [4,11] uqtiradi.

Ma‘lumki, chinor – abadiylik va qudratli tayanch ramzi. Ushbu maqol vaqtni g‘animat bilishga, yoshlikda, husn-jamolga to‘lishgan paytda aql-hushni yig‘ishtirib olib, bir umr chinordek tayanch bo‘lishga arziydigan umr yo‘ldoshni topishga chorlovchi nasihat bo‘lib, gender jihatdan xususiylikka ega. Xuddi shu nasihatni xalqimiy yigitlarga “*Bo‘laringda bo‘lib o‘t, Bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t*” (“*Umr o‘tyapti. Bo‘laringda bo‘lib o‘t, Bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t*”[4,47] tarzida bayon qiladi. Bu maqol kuch-quvvatga to‘lgan, omadi kelib, ishi yurishgan paytda ezgu ishlarni qilib qolishga ulgurish, bunday vaqtni g‘animat bilib, behuda o‘tkazib yubormaslik kerakligini uqtiradi.

Umrning eng gullagan chog‘i, yoshlik xotiralarining eng ko‘rkami – bu yangi hayot bo‘sasida bo‘lgan, balog‘at yoshiga yetib, kimgadir umrini baxshida qilmoqqa tayyor bo‘lgan palladir desak, mubolag‘a qilmaymiz. Ma‘lumki, xalqimiz bu onlarni to‘y marosimi, go‘zal an‘ana-yu, milliy urf-odatlar bilan yanaga ko‘rkamlashtiradi. To‘y marosimidagi chiroyli odatlarimizdan biri nikoh o‘qilayotganda kelindan vakil so‘rash odatidir. Vakil bo‘lg‘usi kelindan tanmahramlikka roziligini so‘raganda qiz bola uyatdan, ibo qilganligidan roziligini oshkor qilolmaydi. Shunday holatda uning roziligi sukut saqlaganidan bilinadi: “Yanga bo‘lmish kenjasini Oymomoga berdi. – Bo‘ldi, *sukut alomati - rizo*, - dedi”[4,15].

Sovchilikka borishdan tortib nikoh oqshomiga qadar qilinajak betakror urf-odatlarimiz borki, xalqimiz ularni madaniyat darajasiga ko‘targan. Tog‘ay Murod shu udumlarimizdan ayrimlarini asarida bayon etadi. Masalan, non sindirish, qalin aytish, fotiha qilish, to‘ylik yuborish, To‘qqiz marosimi, Toboq keldi, Oyoq bosish, It irillar, Kampir o‘ldi, Soch siypatar, Qo‘l ushlatar, Oyna ko‘rsatar kabilar shunday rasm-rusumlarimizdandir. Yana bir go‘zal odatimiz borki, bu- to‘y bo‘layotgan xonadonga qarindoshlar va qo‘ni qo‘shnilarning moliyaviy va ma‘naviy yordam qilishlari. “*To‘yniki to‘yda qaytsin*”[4,17], -deydi xalqimiz.

Darhaqiqat, to‘y har bir ota-onaning farzandi iqboli, baxti kabi orzusidir. Farzand tug‘ilibdiki, uning nikoh to‘ylariga hammamiz yetaylik, - deya duo qilinadi. Xayrli duolar ortidan bir kuni to‘y qilinar ekan, shu muborak kunda jami yaqinlar o‘zining topgan-tutganidan to‘ychilarga hadya tariqasida yordam ham qilishadi, kam-ko‘stlariga qarashadi. Bu xalqimizning betakror udumlaridan sanadi. Hadyalar taqdim etilkan,

o‘zlari ham to‘y qilishlarini, qilgan yordamlari o‘sha kunda o‘zlariga qaytishini orzu qilib, Allohdan so‘rashadi.

Ayniqsa, to‘y yoki boshqa ma‘rakalarda qo‘shnilarning bir-biriga qiladigan yordami madaniy qadriyatlarimiz ulug‘ligidan dalolat beradi: “...*Kelin o‘ng taraf hamsoyaso ot yetakladi. Yon qo‘shnim – jon qo‘shnim bo‘ldi. Ot ostonadan hatladi. Kelin uzatildi*”[4,37]. Xalqimizda qo‘shnichilik ham o‘ziga xos qadriyat hisoblanadi. Qo‘shnilar yaxshi-yomon kunlarda bir-birlaiga hamdam va hamdard bo‘ladilar. Shu sabab ham “Uzoqdagi qarindoshdan – yaqindagi qo‘shni yaxshi”, - deyishadi. Hadislarda ham qo‘shnichilik qadriyatlari e‘zozlanadi, qo‘shnilarga mehr-muruvvat ko‘rsatishga chaqiriladi. Taomilga ko‘ra, qo‘shnilar vaqti-vaqti bilan , ayniqsa, tansiq taom qilingan kuni, bir-birlarinikiga osh-non olib chiqib, bir-birlarini siylashadi. Diniy e‘tiqodimizga ko‘ra shakllangan “Qiyomat kun – qo‘shnidan” matali ham diqqatga sazovor. Rivoyatlarga ko‘ra, qiyomat kuni jannati qo‘shni do‘zaxi qo‘shniga shafatchi bo‘lib, uni xudodan tilab olib, o‘zi bilan birga jannatga olib kirarkan. Demakki, bu hikmatlarning barchasi, qo‘shnichilik - do‘stlik, hamjihatlik, ittifoqlikni ulug‘laydi, kishilarni shunga da‘vat etadi. Bobolarimiz bejizga “Hovli olma, Qo‘shni ol” deyishmagan!

**Xulosa va takliflar.** Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma‘nosi “aqliy-ma‘naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”[1, 10].

Tildagi madaniy belgilarni o‘rganish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga fanning nazariy-metodologik asosi endigina shakllanmoqda. Frazologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda.

Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova bu borada o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasini yaratdi. U o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o‘rni, o‘xshatish mazmunli matnlar,

metaforalarning matn yaratilishidagi o‘rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e‘tibor berildi.

Frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “hikmatlar xazinasini” bo‘lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab ... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – 10 bet.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.: “Ma’naviyat”, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T.: Fan, 1955.
4. Tog‘ay Murod. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
5. Худойбергано́ва Д. Матнинг антропоцентри́к тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
6. Ziyouz.com
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ELEKTRON JURNALI**

**№ 1 (4),  
2023 yil, sentabr**

**O‘zbekcha matn muharriri:**

**Ruscha matn muharriri:**

**Inglizcha matn muharriri:**

**Musahhah:**

**Texnik muharrir:**

Yarashova Nasiba Jumayevna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra'no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL  
VA TALQIN ILMIY-METODIK  
JURNALI  
1-jild, 4-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL  
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI  
CENTURY  
VOLUME 1, ISSUE 4**

**Tahririyat bilan bog'lanish:**

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy  
Web-site: <http://linge.j.nspi.uz>  
Tel: +998(97) 378 - 34 -45

**Editorial staff of the journal:**

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city  
Web-site: <http://linge.j.nspi.uz>  
Tel: +998(97) 378 - 34 -45